



Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta



@Jadidrasmiy



@Jadidmediauz



@Jadidrasmiy



@Jadid_uz

VATAN MANZUMASI

Muhammad YUSUF

KO'KLAMOYIM

Ozod SHARAFIDDINOVga

Sochimda oq, men bahordan o'tindim:
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.
Qor qo'ynida seni qo'msab o'kindim,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Ko'nglimga ko'k binafshalar sochilsin,
Kokiliga tolpopukdan soch ilsin,
Boychechakka borar yo'llar ochilsin,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Yil oxiri, yil boshi ham o'zingsan,
Majnunlarning yo'ldoshi ham o'zingsan.
Laylilarning sirdoshi ham o'zingsan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Kel-da, endi sog'intirmay odamni,
Sen yo'g'ingda bir g'am bosdi yelkamni,
Qorlar kurab ko'mib keldim otamni...
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Ko'king bilan kiyintiray dalamni,
Oyoqyalang suyuntiray bolamni,
O'zing olgin ko'ksimdagi alamni,
Ko'klamoyim ko'kingdan ber bir chindim.

Ginam yo'qdir kuzda ketgan oqqushdan,
lymanmasin qayta eshik qoqishdan.
Qumri bilan birga chiqdik bu qishdan,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Jon ustiga asrab uray ko'kni men,
To'yib-to'yib ko'zga suray ko'kni men.
Yana senga yetamanmi-yo'qmi men,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim.

Dil yayrasin dala-dashting yasanib,
Yalpizlaring suv bo'yiga yastanib,
Ikki misra bayt bitay bir maqtanib,
Ko'klamoyim, ko'kingdan ber bir chindim!..



EKOLOGIK DIPLOMATIYA yoki BARHAMIZ BIR OROLDAMIZ

Xalqimizda "Suv qadrini tashna bilar" degan maqol bor. Umuman, mintaqa tabiatidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bu kabi maqol-matallar yondosh qardoshlarimizda ham ko'p uchrashi shubhasiz. Albatta, neki tanqis bo'lsa, o'sha tansiqdir.


Tojik birodarlarimiz suvni "obi hayot" deb ulug'lashida ham ana shu hayot haqiqati mujassam.

Dunyoda ekologik inqiroz jiddiylashib borayotgan bo'lsa, mintaqamizda bu kulfat ikki karra his qilinmoqda.

Ostona shahrida bo'lib o'tgan Mintaqaviy ekologik sammit hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishi Markaziy Osiyoning yaqin o'n yillikdagi taqdirini belgilovchi tarixiy voqeikka aylandi. Yetakchilar tomonidan Ostona bayo-

noti, 26-martni Xalqaro Orol dengizi, Amudaryo hamda Sirdaryo kuni deb e'lon qilish to'g'risida hamda O'zbekiston yetakchisini 2027-2029-yillarda jamg'arma prezidenti etib saylash to'g'risida imzolangan qarorlar va O'zbekiston Prezidenti ilgari surgan o'ta muhim tashabbuslar ana shunday xulosa chiqarishga imkon beradi.

(Davomi 4-sahifada.)



ILM YO'LI QUDRATLI TO'LQIN

O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Fathulla ABDULLAYEV bilan suhbat

– Domla, suhbatga tayyorgarlik chog'ida nozik va ahamiyatli ta'rifga duch keldik. Bu bizga g'urur bag'ishladi. Unda Siz "nochiziqi fizika bo'yicha jahon miqyosida tan olingan ilmiy maktab asoschisi" sifatida e'tirof etilgansiz. Bu soha murakkabligi uchun ilm ahli orasida ham kam yoyilgan ekan. Nochiziqi fizika va uning tarixi haqida aytib bersangiz.

– Bu fan XX asrda jadal rivojlangan bo'lsa-da, ildizlari XIX asrga borib taqaladi. Biz to'liqlar bag'rida yashaymiz. A'trofimizdagi deyarli barcha jarayonlar to'liq tabiatiga ega. Masalan,



suhbat – akustik to'lqin. Agar to'lqin intensivligi past, amplitudasi kichik bo'lsa, ular chiziqi deb ataladi. Bu nimani anglatadi? Ya'ni, bir nechta to'lqin qo'shilsa, yana o'sha shakldagi to'lqin hosil bo'ladi, ularning chastotasi o'zgarmaydi.

(Davomi 2-sahifada.)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kuni kecha Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumaniga tashrif buyurib, bunyodkorlik va infratuzilmani rivojlantirish ishlari bilan tanishdi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston yoshlari – 2030" strategiyasini 2026-2027-yillarda amalga oshirish hamda yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Samarqand shahrida Xalqaro narkotiklarni nazorat qilish qo'mitasi Bosh kotibi Stefano Berterame bilan uchrashdi.

✓ O'zbekiston o'z tarixida ilk bor BMTning Jinoyatchilikning oldini olish va jinoyit odil sudlov masalalari bo'yicha komissiyasiga 2027-2029-yillar uchun a'zo etib saylandi.

MOZIYDAN SADO

"Har kimki Mashrabga yetibdur..."

Mashrabshunos olim, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori Mo'min Hoshimxonov bilan suhbat




– Domla, bilamizki, Mashrab hazratlari Alisher Navoiydan keyin o'zbek she'riyatida turli janrlarda eng ko'p ijod qilgan sermahsul mutafakkir shoirdir. Siz o'z ilmiy-ijodiy faoliyatingizni Mashrab hayoti va faoliyatini o'rganishga bag'ishlab kelyapsiz. Sizning tasavvuringizdagi Mashrab kim o'zi?

– Mashrab – o'tashnafas shoir. Uning Qashqardagi piri komili Ofoqxoja: "Mashrabga ozor bermanglar, u Farg'ona dardini ko'taradi", degan ekan. Mashrab nafaqat Farg'ona zamini, balki butun ahli ushshoq hasratini, dardini ko'targan tariqat targ'ibotchisi, avliyoyi Haq edi. Ofoqxoja yana lutf etadiki: "Har kimki Mashrabga yetibdur, bilsinki, Haqqa yetibdur". Mashrab darveshlikni shohlidan ustun qo'yan shoir. Shuning uchun yozganki:

Bir martabada turmas emish shoh ila darvesh,
Bas, jandani kiydim-u o'zimni darbadar ettim.
Mashrab sabr-toqatli, Haqqa yetishgan avliyo. O'zini Haqqa bag'ishlagan darvesh:
Bu olam ahli ichra dilparishon o'lmasun hech kim!
Mana, uning falsafasi. Ibrohim G'afurov buni "Odamzodga yuborilgan Manifest" deb atagan.
Barchalar yondi gunohdin, men-chi, yonmasman hanuz!
Ayo, do'zax meni kuydur, xaloyiq kuymasun hargiz!
Qaysi Manifestdan kam bu nidolar.
Mashrab – payg'om rutbasidan nurlangan, pok-nasab, palagi toza, xalqparvar muborak zot.

(Davomi 4-sahifada.)

PREMYERA



TEATRUDA YIG'LAGAN MALAKLAR KIMLAR?

Vaqtli kelganlar ham kechikdi. O'zbek davlat drama teatri ostonasi gavjum. Ko'chaning ikki yuziga katta-kichik ulovlar qantirib qo'yilgan. Davrimizda bu manzarani ko'proq restoranlar yo ko'ngilochar maskanlarda ko'rib o'rganganmiz.

Gavjumlik sababchilari ikki turli: chiptani kassadan olishni ("Hozir kim spektaklga tushadi?" deb) o'yilganlar va chiptasi bo'lsa ham, tadbirlar vaqtida boshlanmaydi (kinoda aytadi-ku, "Bilet bizda, poyezd qayerga ketadi?" deb) hisoblaganlar. Ma'muriyat ularni qanday

ko'ndirib, yupatib qaytarib yubordi, bu bizga qorong'i. Bu vaqtda biz, bir soatcha oldin kelganlar, bino tolarlarini kezib yurardik. Kimlar yo'q edi deysiz bu yerda? Akademik Abdulla A'zam, O'zbekiston xalq yozuvchilari Muhammad Ali, Erkin A'zam, taniqli adabiyotshunoslar Shuhrat Rizayev, Olimjon Davlatov, davlat va jamoat arboblari, olimlar, rektorlar, adiblar, shoirlar, rassomlar, bastakorlar, rejissyorlar, san'atshunoslar va albatta, jurnalistlar. Asosiy yig'ilganlar esa yoshlar.

(Davomi 3-sahifada.)

O'Y

"BAXTSIZ KUYOV" dan 100 YILLIK SABOQ

XX asr Turkiston o'lkasiga kirib kelgan yangiliklardan biri, bu – teatr edi. Mintaqada garchi ommaviy tomoshalar bundan avval ham qo'yilgan, odamlar gavjum joylarda, sayil va boshqa tadbirlarda bu kabi chiqishlar namoyish etilgan bo'lsa-da, professional teatrlarning shakllanishi aynan jaddlar nomi va ularning serqirra faoliyati bilan bog'liq. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" nomli birinchi milliy pyesasiga havas bilan Abdulla Qodiriy tomonidan yozilgan "Baxtsiz kuyov" jamiyatdagi illat va odamlar tafakkuridagi nuqsonlarga tutilgan ko'zgu o'laroq, qolaversa, milliy dramaturgiyamizning shakllanishi va rivojlanishiga qo'shilgan hissa sifatida ham muhim ahmiyatga molik sahna asarlaridan biri hisoblanadi.



(Davomi 6-sahifada.)



Boshlanishi 1-sahifada.

Ammo nochiqliq to'liqlarda vaziyat butunlay boshqacha. Ularning xossalari amplitudaga bog'liq ravishda o'zgaradi. Masalan, suvdagi to'liqlarni o'laylik: amplituda kichik bo'lsa, mayda to'liqlar hosil qiladi. Lekin katta bo'lsa, sunami yuzaga keladi. Demak, amplituda qancha katta bo'lsa, nochiqlik shuncha kuchayadi.

Nochiqlikka yana bir yorqin misolni optika sohasida ko'ramiz. Odatda, yorug'lik nurlari muhitdan o'tganda o'z rangi va chastotasini o'zgartirmaydi. Lekin shunday maxsus kristallar borki, ular orqali kuchli nur o'tganda rangi o'zgarishi mumkin. Masalan, qizil nur kirib, ko'ki chiqadi. Bu holat oddiy yorug'lik manbalari bilan kuzatilmaydi. Bu yerda asosiy rol laser o'ynaydi. Laser nurining intensivligi juda yuqori bo'lgani uchun nochiqlik effektini kuzatish imkoni paydo bo'ladi. Tajribalarda laser nurining chastotasi ikki barobar oshirilib, boshqa rangli nur hosil qilingan. Bu nochiqlik optikaning klassik namunasi.

Hozirgi kunda bu soha juda keng rivojlanmoqda. Ilgari nochiqlik effektini ikkinchi darajali hisoblangan bo'lsa, bugungi kunda ular ko'plab tizimlarda asosiy ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, mikro va nanoo'lchamli tizimlarda intensivlikning oshishi natijasida nochiqlik kuchayadi. Shuningdek, juda past temperaturalarda ham tizimlar nihoyatda sezgir bo'lib qoladi. Qisqacha aytganda, nochiqlik to'liqlar – bu zamonaviy fizikaning muhim va tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, ahamiyati kun sayin ortib boryapti.

– Ilmiy ishlaringiz solitonlar va xaos nazariyasi bilan bog'liq ekan. Ular bugungi kunda qaysi sohalarda amaliy ifodasini topmoqda?

– Solitonlar kashfiyotiga 150 yil to'ldi. Olim, muhandis va kema quruvchisi Skott Rassel birinchi marta solitonni suvda kuzatgan. Bu shunaqa to'liq, oddiy to'liqlar tarqalganda kengayib boradi va pasayib ketadi. Bunda esa u pasayib ketmaydi va kengaymaydi ham. Soliton bu "solitar", ya'ni "yolg'iz", "ajralib turadigan" degani. Keyin plazma fizikasida ham topishgan. Yadro, termoyadroviy reaksiyalar, plazma nazariyasini o'rganishda ham ko'rishgan solitonlarni. Yana men tilga olgan lazerlar paydo bo'lganda, optikada ko'rishgan. Elektromagnit to'liqlar ham har xil muhitlarda soliton formasida tarqalishi mumkin. Optikaviy soliton deyiladi. Mening "Optikaviy solitonlar nazariyasi" kitobim shu mavzuga bag'ishlangan. Ilmiy faoliyatim va qo'llanmalar yozishni shundan boshlaganman-da.

– Ilm hayotga vobasta bo'lsagina tirikdir, degan fikr bor. Gaplaringizni tinglab, soha naqadar murakkab ekaniga guvoh bo'lyapman. Aytinch, bu tizim hayotga tatbiq etilgan misollar bormi?


– Solitonlar, ayniqsa, optika va elektromagnit to'liqlar sohasida katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda axborot uzatishning asosiy qismi optik tola orqali amalga oshiriladi. Televideniye, internet, raqamli aloqa – barchasi shu texnologiyaga tayanadi. Bu yerda signallar "ha" va "yo'q" kabi binar kod ko'rinishida, ya'ni yorug'lik impulsari orqali uzatiladi. Ammo bu tizimning fundamental muammosi bor: yorug'lik – bu to'liq va har qanday to'liq muhitda tarqalganda kengayadi. Natijada signallar vaqt o'tishi bilan bir-biriga aralashib ketadi, chegaralari yo'qoladi va xatolar paydo bo'ladi. Bu – tabiat qonuni, ya'ni prinsipial cheklov. Shuning uchun optik kommunikatsiya tizimlari

qanchalik tez bo'lmasin, ularning maksimal samaradorligi cheklangan. Ana shu yerda solitonlar yechim sifatida namoyon bo'ladi. Chunki solitonlar tarqalmaydi, shaklini saqlaydi va uzoq masofaga deformatsiyasiz yetib boradi. Demak, ular signallarni aralashib ketishidan saqlaydi va ma'lumotni aniq uzatish imkonini beradi. Bu esa mavjud texnologiyalarning fundamental chegarasidan chiqish imkoniyatini ochadi.

Amaliy jihatdan qaralganda, solitonlarga asoslangan aloqa liniyalari allaqachon sinovdan o'tkazilgan. Masalan, Avstraliyada minglab kilometr ga cho'zilgan eksperimental soliton liniyasi qurilgan va ishlagan. Lekin bu

yanada muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Chunki solitonlar nafaqat optikada, balki kvant hisoblash sohasida ham qo'llanilishi mumkin. Kvant texnologiyalari va solitonlar bir-biriga yaqinlashib bormoqda va bu ikki yo'nalish kesishgan nuqtada yangi ilmiy va texnologik yutuqlar paydo bo'lishi ehtimoli katta.

Xulosa qilib aytganda, solitonlar – bu hozirgi texnologiyalarning chekka nuqtasida turgan, lekin kelajak uchun ulkan salohiyatga ega bo'lgan murakkab va chuqur ilmiy yo'nalishdir. U hali to'liq amalga oshmagan imkoniyatlar dunyosi bo'lib qolmoqda, ammo vaqt o'tishi bilan uning amaliy qiymati albatta namoyon bo'ladi.



texnologiyani keng joriy etish oson emas. Chunki buning uchun butun infratuzilmani – generatorlar, qabul qilgichlar, modulyatsiya usullari – to'liq qayta qurish talab qilinadi. Industriya esa odatda yangi prinsipga keskin o'tishdan ko'ra, mavjud texnologiyani asta-sekin takomillashtirishni afzal ko'radi. Bu holatni elektronika ham ko'rish mumkin.

Masalan, tranzistor texnologiyasi hozir deyarli fizik chegaraga yetib kelgan: o'lchamlar nanometr darajasigacha kichraygan. Lekin shunga qaramay, yangi prinsipga o'tish o'rni, shu eski yo'lni yanada optimallashtirishga urinish davom etmoqda. Solitonlar bilan ham xuddi shunday holat. Bir vaqtlar ularga juda katta umidlar bog'langan edi, ammo amaliyotda yangi muammolar paydo bo'ldi. ILM-fanning tabiati shu: bir muammoni hal qilsangiz, darhol boshqasi yuzaga chiqadi. Solitonlar barqaror bo'lsa-da, ularni yaratish, boshqarish va real muhitlarda saqlash oson emas.

O'zbekistonda bu yo'nalish asosan nazariy darajada rivojlanmoqda. Masalan, O'zbekiston Milliy universitetida va ilmiy markazlarda nazariy fiziklar solitonlar bilan bog'liq tadqiqotlar olib bormoqda. Shu jumladan, elementar zarralar fizikasida ham solitonsimon yechimlar o'rganilmoqda. Lekin hali bu ishlar keng ko'lami texnologiyalarga tatbiq etilmagan. Kelajakda esa bu yo'nalish

– Hozirgi kunda olib borayotgan amaliy ishingizga ham to'xtalsak.

– Ayni paytda olib borayotgan ilmiy ishlarim asosan makroskopik kvant hodisalariga bag'ishlangan. Bu nima degani? Ko'pchilik kvant mexanikasini faqat atom va elementar zarralar darajasida, ya'ni juda kichik masofalarda namoyon bo'ladi, deb o'ylaydi. Masalan, maktabdan tanish bo'lgan Nils Bor modeli orqali atom tuzilishi o'rganiladi. Shuning uchun uzoq vaqt davomida kvant hodisalarini faqat mikroduyoga xos, degan qarash ustun bo'lgan. Ammo ma'lum bo'ldiki, muayyan sharoitlarda kvant xossalari makroskopik – ya'ni, ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan darajadagi tizimlarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Buning uchun eng muhim shart – jamoaviy harakatdir. Demak, juda ko'p zarrachalar bir-biri bilan uyg'unlashib, go'yo bitta "ulkan kvant obyekt" kabi harakat qila boshlaydi. Masalan, oddiy sharoitda har bir zarra mustaqil harakat qiladi. Lekin temperatura juda past bo'lganda, ularning to'liqlini tabiati kuchayadi va bir-biri bilan "qoplanib ketadi". Natijada butun sistema yagona kvant holatiga o'tadi.

Bunday hodisalarga bir necha muhim misollar bor. Birinchisi, lazer. U makroskopik kvant tizim bo'lib, juda ko'p fotonlar bir xil fazada va bir xil holatda harakat qiladi. Ikkinchi muhim misol – o'ta o'tkazuvchanlik. Ayrim materiallarning temperaturasini ma'lum darajagacha pasaytirsak, ularda elektr qarshilik to'liq yo'qoladi. Ya'ni, tok hech qanday yo'qotishsiz oqadi. Bu holatda elektronlar alohida emas, balki jamoaviy ravishda yagona kvant tizim sifatida harakat qiladi. Bu hodisaning amaliy ahamiyati juda katta. Masalan, eng kuchli magnitlar aynan shu prinsip asosida yaratiladi. Turli zarralar tezlatgichlarida ishlatiladigan magnitlar o'ta o'tkazuvchan materiallardan tayyorlanadi.

Hozirgi tadqiqotlarim yanada qiziq bir yo'nalish – kvant gazlari bilan bog'liq. Bu sohada ayrim gazlarni juda past temperaturagacha sovitganda, ular mutlaqo yangi holatga o'tadi. Bu holat Boze–Eynshteyn kondensati deb ataladi. Bu g'oyani ilk bor Satendra Nat Boze va Albert Eynshteyn ilgari surgan. Ular shunday holat bo'lishi mumkinligini nazariy jihatdan bashorat qilgan edi. Boze–Eynshteyn kondensatida millionlab atom birlashib, go'yo bitta atom kabi harakat qiladi. Eng qiziqi bunday tizimlar makroskopik o'lchamga, masalan, santimetr darajasigacha yetishi mumkin. Ya'ni, odatda faqat mikroduyoga xos bo'lgan kvant xossalarni ko'z bilan ham kuzatish imkoni paydo bo'ladi.

Hozir aynan shu yo'nalish zamonaviy fizikaning eng istiqbolli sohasidan biri hisoblanadi. Kvant gazlari nafaqat fundamental ilm, balki kelajak texnologiyalari, jumladan, kvant hisoblash va yuqori aniqlikdagi o'lchash tizimlari uchun ham katta ahamiyatga ega.

– Ilm dunyosida o'z yo'nalishida xos maktab yaratgan olimlar ko'p emas. Siz asos solgan nochiqlik fizika maktabi haqida gaplashingiz.

– 1975-yilda kandidatlik dissertatsiyasini nazariy elementar zarralar fizikasi bo'yicha himoya qilganman. Kvant xalqik yo'nalishimni o'zgartirib, solitonlar sohasiga o'tdim va 1984-yilda doktorlik dissertatsiyasini aynan shu mavzu bo'yicha yoqladim. Shu davrdan boshlab ilmiy maktab shakllana boshladi. Birinchi aspirantlarimni 1978-1979-yillarda tayyorlagan bo'lsam, keyingi yillar davomida bu an'ana kengaydi: to'rtta doktorlik va o'n uchta nomzodlik dissertatsiyasi tayyorlandi. Keyinchalik esa turli yillarda chet elda ham uzoq muddatli ilmiy faoliyat olib borishga to'g'ri keldi.

2001-yillar atrofida xorijiy ilmiy markazlar bilan hamkorlik boshlangan. Masalan, Britaniya Qirolik jamiyati tomonidan grant ajratilgan va ilk bor London Qirolik kollejiga uch oylik tashrif amalga oshirilgan. Bu kabi safarlar ko'proq qiziqish va ilmiy hamkorlik ehtiyoji bilan bog'liq edi. Konferensiyalar va ilmiy uchrashuvlarda umumiy muammolar muhokama qilinar, bir xil qiziqishlar tufayli birgalikda ishlash zarurati paydo bo'lardi. Masalan, Sent-Jons, Kembrij kabi muassasalarda o'tkazilgan uchrashuvlar ilmiy muloqot uchun muhim maydon bo'lgan. O'sha davrda xorijda yo'nalishimiz bo'yicha ilmiy muhit juda kuchli edi.

Keyingi davrda siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sababli fanning rivojlanish sur'ati sekinlashgan bo'lsa-da, uning intellektual salohiyati yo'qolib ketmagan. Tarix shuni ko'rsatadiki, fan tizimini qisqa vaqtda pasaytirish oson, lekin uni qayta tiklash juda murakkab jarayon. Masalan, Germaniyada natsizm davrida ko'plab yirik olimlar mamlakatni tark etgan. Keyinchalik Germaniya iqtisodiy jihatdan qayta tiklangan bo'lsa-da, ilmiy maktablarning ilgari darajasiga qaytish uchun o'nlab yillar kerak bo'lgan. Shu ma'noda, ilm – bu uzoq muddatli, uzilishlarga chidamli, lekin bir marta yo'qotilsa, qayta tiklash uchun katta vaqt va sa'y-harakat talab qiladigan tizimdir.

– Ilmiy maktabni yo'qotish oson, lekin yaratish qiyin. Xalqaro tajribangizga tayanib, hozirgi kunda bizning ilmda nimalar yetishmayapti va qaysi sharoitlar yaxshilandi, deb hisoblaysiz?

– Hozirgi holatni olganda, albatta, ijobiy o'zgarishlar bor. E'tibor avvalgidan yaxshi. Lekin fan, ayniqsa, fundamental fan juda qimmat va uzoq muddatli sarmoya talab qiladigan soha. Ba'zi sohalarda natija so'rash oson: "shuni ishlatdinglar", "buni quringlar", "shu anjomni chiqaringlar", deysiz mumkin. Bu tabiiy, chunki natijasi tez ko'rinadi. Lekin

fundamental fanning mohiyati boshqacha, u darhol foyda bermaydi, balki kelajakdagi butun texnologiyalarning asosini yaratadi. Fundamental fanni rivojlantirish uchun, eng avvalo, ta'lim tizimi kuchli bo'lishi kerak. Maktabdan boshlab tayyorgarlik, fikrlash madaniyati, ilmiy yondashuv shakllanishi shart. Bu borada hali yetishmovchiliklar bor.

Yoshlarga kelsak, eng muhimi – qiziqish. Lekin faqat qiziqishning o'zi yetarli emas. Fanda "hunar" degan tushuncha bor, ya'ni kasbiy mahorat, texnik ko'nikmalar. Fan ham rassomlikka o'xshaydi: rassom faqat g'oyani emas, balki bo'yoqni qanday aralashtirish, mo'yqalamdan qanday foydalanishni ham bilishi kerak. Imda ham xuddi shunday – nazariy fizikada bu matematika: integral, differensial tenglamalar, algebra kabi instrumentlarni puxta egallash kerak. Bu – fanning "texnika"si. Shu bilan birga, faqat nazariya yoki quruq fikr bilan cheklanib qolish ham yetarli emas. Inson doim o'qishi, mashq qilishi, o'z ustida ishlashi kerak. Qobiliyat bor, lekin u rivojlantirilmasa, natija bermaydi.

Juda muhim omillardan yana biri – ilmiy muhit. Yosh olim qiziqish jamaoda ish boshlashi taqdirida katta rol o'ynaydi. Ilmiy maktab, ustozlar, kuchli jamoa insonning shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zim ham yoshlik yillarimda Dubnada, Moskvada, Landau nazariy fizika institutida, P.N.Lebedevev nomidagi fizika institutida ishlash imkoniga ega bo'lganman. U yerda juda kuchli olimlar muhiti bor edi. Masalan, Vitaliy Ginzburg kabi yirik olimlar bilan muloqot qilish, ularning ish uslubini kuzatishning o'zi katta maktab bo'lgan. Chunki shunday narsalar borki, ularni faqat masala yechib yoki kitob o'qib o'rganib bo'lmaydi.

Ilmiy tafakkurni shakllantirish uchun kuchli muhit, jonli muloqot va real ish jarayoni juda muhim. Shuningdek, dunyoqarash ham keng bo'lishi kerak. Adabiyot, she'riyat, umumiy madaniyat ham olim shaxsini shakllantiradi. Chunki fan faqat tor texnik bilim emas, u keng fikrlashni talab qiladi.

– 78 yoshni qarshilayotgan akademik sifatida hozirgi olimlarga, yosh tadqiqotchilarga qanday tavsiya berasiz?


– Men tavsiya berishga u qadar shoshmayman. Chunki har bir akademik darajasiga yetgan inson – bu alohida bir shaxs. U o'z xususiyati, o'z yo'li, o'z olamiga ega. Hatto uni bitta "orol" yoki "yarimorol"ga qiyos qilish mumkin. Hayotda tavsiya berish oson, lekin uni bajarish juda qiyin. Shuning uchun har bir inson, ayniqsa, yosh olim o'z yo'lini o'zi topadi.

Fikrimcha, eng muhimi – izlanish. Qiziqarli ish bilan shug'ullanish kerak. Qiyinchilikdan qochmaslik lozim. Muammo chiqdim, qo'l ko'tarib chekinish emas, balki uni hal qilish kerak. Insonda xarakter bo'lishi shart. Eng qimmatli narsa – bu o'zing qo'ygan va o'zing yechgan masala. Kichik bo'lsa ham farqi yo'q. Muhimi, inson uni boshidan oxirigacha mustaqil yechsin. Bunday tajriba juda katta ilmiy tafakkur beradi. Fanning tabiati shundayki, unda hamma narsa oldindan ma'lum emas. Kichik ko'ringan masala vaqt o'tishi bilan katta ilmiy yo'nalishga aylanishi mumkin.

Asosiy – qiziqish, mehnat, sabr va mustaqil fikrlash. Qolgan esa yo'l davomida shakllanadi.

– Ustoz, qimmatli vaqtningizni ajratganingiz uchun minnatdorlik bildiramiz. ILM va tajribangizdan olgan saboqlar biz uchun ham katta maktab bo'ldi. Sizga mustahkam sog'liq, uzoq umr va yangi ilmiy yutuqlar tilaymiz!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA



“

Hayot velosipedda sayr qilishga o'xshaydi. Yiqilmaslik uchun harakat qilish kerak.

Albert EYNSHTEYN

”

FORUM

O'zbekiston delegatsiyasi safida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Hindiston yoshlari forumida ishtirok etdik. Mazkur tadbir mintaqalararo muloqot maydonini kengaytirishda va do'stlik aloqalarini mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi.

Delegatsiya tarkibidan ta'lim, iqtisodiyot, madaniyat, san'at va boshqa soha vakillari joy olgandi. Safar davomida davlat va jamoat arboblari bilan uchrashuvlar o'tkazildi, shuningdek, yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ixtisoslashgan tashkilotlar faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Tashrifning asosiy voqealaridan biri Hindiston tashqi ishlar

vaziri Subramanyam Jayshankar bilan uchrashuv bo'ldi.

Forum tadbirlari doirasida O'zbekiston vakillari xorijiy ishtirokchilarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining mazmun-mohiyati va ahamiyati bilan batafsil tanishtirdi. Yoshlarimiz uchun yaratilgan keng imkoniyatlar, yigit-qizlarning jamiyat hayotidagi rolini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ma'lumotlar alohida qiziqish uyg'otdi. Kamina vazir janoblari bilan muloqotda O'zbekiston va Hindiston yoshlari o'rtasida xalqaro sport platformasini yaratish taklifini

ilgari surdim. Ushbu chiqishim iliq qarshi olindi.

Hindistonda men uchun hayratlanarli voqealardan biri o'zbek va hind tilidagi talaffuzi va ma'nosi uyqash so'zlarni eshitganim bo'ldi. Masalan, "kitab", "mehman", "duniya", "tandoori", "samosa", "chai", "naan" so'zlarini siz ham tarjimasiz tushundingiz nazarimda. Bu tasodif emas ekan. Tilshunolar bu ikki til o'rtasida 5000 dan ortiq umumiy so'z mavjudligini tasdiqlashganini keyinroq bildim. Qolaversa, hind kino san'ati sof hindcha so'zlarni ham tarjimasiz tushunish imkoniyatini yaratgan.

Betakkor hind filmlari sabab bo'libmi, bu o'lka va tilga bo'lgan qiziqish yuqori. Toshkentdagi La'l Bahadur Shastri nomidagi hind madaniyati markazi orqali muntazam ravishda hind tili darlari o'tkazilmoqda va talabalar har yili Agradagi Markaziy hind institutida ta'lim olish uchun tanlanmoqda. Toshkentdagi Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida "Hindiston kafedrasini" tashkil etilgan. 2024-2025-yillarda yurtimizdan yuzdan ortiq nomzodlar ITEC dasturi doirasida hind hukumatining stipendiyalariga sazovor bo'ldi.

Yana bir gap: bu yerda ham uzun sochli qizlar alohida qadrlanar va hurmat qilinar ekan. Bu kichik tafsilot chuqurroq narsaga ishora qiladi: na globallashtirish, na geografiya qadriyatlar qadri o'chira olmbadi.

Yodingizda bo'lsa, ulug' jadid bobomiz Fitrat "Hind sayyohi qissasi"ni yozib, o'tgan asr boshidagi mintaqamiz manzaralariga nazar tashlagan edi. Bugun men O'zbekiston vakili bo'lib, Hindiston eli bilan tanishdim va taassurotlarimdan bir chimdim sizga ham ulashdim. Yoshlar do'stligi istiqbolli rishatdir. Kelgusida ham mana shunday loyihalar ko'lami kengayib borishini tilab qolamiz.

Shamsiqamar SUYUNOVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti laureati



“Hind sori yuzlandim...”



Boshlanishi 1-sahifada.

Teatrning bir tarafida – sirk, bir yonida bozor. Vaqt ham shanba, kechki payt. Shunday bir makon va zamonda yosh-u qarini, erkag-u ayolni, olim-u tolibni bir tom ostiga jamlagan munosabat nima bo'ldi ekan? Taraddudni ko'rib, to'y deysiz. Aniqrog'i, to'yning davomi. Bu haqda keyinroq...

Keling, barchani chorlagan spektakl afishasiga nazar solamiz. U yerda aniq va lo'nda qilib bitilish: "Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostoni asosida sahnalashtirilgan spektakl PREMYERASI".

G'oya muallifi va adabiy maslahatchi O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sulton, insenirovka muallifi Ikrom Iskandar. Sahnalashtirish badiiy rahbari O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Olimjon Salimov, sahnalashtiruvchi rejissyor Asqar Xolmo'minov.

2021-yil 25-dekabr. Ulug' ingliz adibi Shekspirning "Romeo va Juletta" besh pardali fojiasi O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasida teatr san'atining "so'nggi mogikan"i Olimjon Salimov tomonidan sahnalashtiriladi. Unga ziyolilar ham taklif etilgan, ular orasida tanikliq adib Xayriddin Sulton ham bor edi.

2022-yil 1-yanvar. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" (hozirgi "Jadid") gazetasida bir sahifalik "Qish ichra bahor" maqolasi chop etiladi. Unda muallif "Romeo va Juletta" hamda "Layli va Majnun" asarlaridagi mushtaraklikni ifodalaydi. Spektakl Navoiy baytlari orqali talqin etiladi. Mutlaqo yangi va kutilmagan munosabat teatr jamoasiga ilhom bag'ishlaydi. Maqola muallifi bevosita g'oya muallifiga aylanadi.

"Layli va Majnun" dostoni hazrat Navoiy asarlari orasida ehtimol eng obrazli, sirli va murakkab asar bo'lsa, ajab emas. Uni bugungi tomoshabingamiz manzur bo'ladigan, teatr san'ati qoliplariga mos tushadigan shaklga keltirish katta bilim, mehnat va mas'uliyat talab qilishi bor gap. Bu ishini shunchaki, talab va taklif bilan ado etib bo'lmaydi. Buning uchun Alisher Navoiyga bo'lgan yuksak ixlos va havas ham kerak. Ana shu vazifa tanikliq shoir, mumtoz adabiyot bilimdoni, muharrir va jurnalist Ikrom Iskandarga yuklangan ekan. U kishiga ustozlar, olimlar va san'atkorlar yordamiga keladi. Mana shu dalda mevasi o'laroq muallif, qodiriyona ifoda bilan aytganda, havasida jasorat etib, "havaskorlik orqasida kechaturgan qusur va xatolardan cho'chib turmay" ishga kirishadi. Bu jasorat hosilasi bahosini esa, shubhasiz, tomoshaga tushganlar beradi.

Biroz ilgari aytdikimiz kerakki, Ikrom Iskandar premyera kuni aktyorlar va tomoshabinlar talabiga qaramay, ijodkorlar qatorida sahnaga chiqishdan istihola qildi. "Bu asar Navoiy bobomizniki, qancha olqish va alqov bo'lsa Hazratga oid", deb oyoq tirab turib olganiga guvohmiz.

Nega aynan ushbu teatr va jamoa? Yuqorida ishora etilganidek, "Romeo va Juletta" hamda "Layli va Majnun" asarlari o'rtasida nafaqat mazmuniy-hissiy bog'liqlik, balki bu ikki daho san'atkorning hayotiy va falsafiy qarashlarida

TEATRUDA YIG'LAGAN MALAKLAR KIMLAR?



mushtaraklik bo'lib, ikki spektakl bir-birini to'ldiradi. Premyera davomida aytilganidek, kelgusida ikki tomosha ikki kun ketma-ket qo'yiladi. Yangiligi shundaki, bitta chipta orqali ikkita spektakl ko'rish mumkin. Aktyorlar tarkibi ham deyarli bir xil bo'ladi. Bu tomoshabingamiz asarini qabul qilishni yanada osonlashtiradi.

Tan olish kerakki, bugun bir daqiqalik videoga ham toqati yetmayotgan auditoriya diqqatini bir-ikki soatga cho'zadigan spektaklga jalb qilish va ushlab turish mushkuldan mushkul. Kamiga teatrlarimizda ham oldi-qochdi tomoshalarga o'rganib borayotgan tomoshabingamiz mumtoz asarlarni taqdim etish ikki karra og'ir. Biroq Olimjon Salimov va Asqar Xolmo'minovning ustoz-shogirdlik maktabi natijasida bu ish uddalangan, deb baralla aytish mumkin.

Men o'zim "Romeo va Juletta"ga to'rt marta tushdim. Biron marta zalda bo'sh joy ko'rmasdim, keluvchilarning sakson foizi yoshlar, yana bir tomoni, hech kim zaldan chiqib ketgani yo'q seans davomida. Aksincha, spektakl tugagandan keyin ma'muriyat iltimos qilib zaldan kuzatib qo'yishadi tomosha ta'siriga tushib qolganlarni.

Darvoqe, "Layli va Majnun" premyerasi haqida yozayman-u, keyingi seansga jamoamiz bilan birga borishga chipta olishni unutganim yo'q.

Nihoyat, zal eshiklari ochilib, ichkari kirildi. Baribir, o'zbekimiz-da, qo'lida chiptasi va taklifnomasi bo'lsa ham jamoat avval yoshi kattalarga yo'l berdi, ularning joylashib olishini kutdi. Keyin o'rindiqlar to'ldi. Shundayam tik turganlar bor edi: ularga stol qo'yib berildi, ammo... Bu yog'i o'zbekchilik, yigitlar qizlarga joyini berib, o'zlari zina va yo'laklarga chordona qurdi. Chiroyli ta'mirlangan teatr binosi shu

qadar shinamki, bemaol polda ham o'tirish mumkin. Bir soatda hech kimning maqomi tushib qolmaydi, buning evaziga tarixiy premyeraning ilk tomoshabingamiz aylanish baxtiga erishish mumkin bo'lgan bir paytda.

Parda ochildi. Dekoratsiya ko'pchilikni shoshirib qo'ydiki: sahna devorlariga, adashmasam, metall qoq'oz (falga) tortilgan, markazda ikkita havoza. Orqa tomonda xonanda va sozanda uchun maydon. O'rtiqcha hech nima yo'q. Ammo shuning o'zi betakror spektakl uchun kifoya qildi. Syujet kayfiyatiga qarab chiroqlar yordamida sahna muhiti o'zgartirib turildi. Buning uchun sahnalashtiruvchi rassom Mirjalol Xolqovga rahmat aytamiz.

Liboslar bo'yicha rassom Ra'no Xayriddinova fantaziyasiga esa qo'yl qolmay iloj yo'q. Ma'lumki, Layli va Qays – arab qabilalari vakillari. Ularga to'g'ridan to'g'ri sahyoylarning kiyimini tanlash eng oson yo'l edi. Ammo liboslar ijodkorlik va zamonaviylik sintezi orqali yaratilgan. Tanlangan matn va uning bezaklarini bemaol moda namoyishiga olib chiqsa bo'ladi.

Kompozitor Aepbergen Otegenov ijodi esa yig'ilganlarga doston mohiyatini qalbdan tushunishga ulkan hissa qo'shdi. Chunki hamma ham doston syujetini bilmaydi, sahnada yangrayotgan baytlar (garchi imkon qadar bugungi tilga yaqinlashtirilgan bo'lsa-da) mag'zini chaqa olmaydi. Ammo aktyorlar harakati va so'ziga hamohang ketayotgan musiqani tarjimasiz tushundi hamma.

Spektakl ramzlarga qurilgan. Har bir harakat ortida falsafa yashirin. Aktyorlar o'rni kelganda samo va balet raqsalarini ijro etishiga ham to'g'ri keldi. Opera va balet teatri bo'lmasa-da, baletmeyster Erkin Qahhorov yordami bilan buni muvaffaqiyatli uddalashdi.

Tomosha nihoyaladi. Layli va Majnuning vafoti sahnasidan keyin chiroqlar yoqildi. Ishonasizmi-yo'qmi, ko'pni ko'rgan nuroniy-lardan tortib 16-17 yashar yigit-qizlarga barchanig ko'zida yosh millatlardi. Orqaroq qatorda o'tirgan qizlar o'zini tuta olmay baralla yig'lab yubordi. Biz oldinroqda o'tirgandik. Yonimdagi talaba qizlarning dastro'molchasi ho'l bo'lib ketganidan ortiq namlikni singdirilmay qoldi. Yoshi kattalar ham parda qayta ochilguncha, tezda yoshini artib oldi. Devday yigitlarni yig'lagandan keyin tomosha ta'sirchanligi haqida ortiqcha gapirish shart bo'lmasa kerak.

Ochig'i, bugun axborot oqimi shu darajada kuchayib ketdiki, yaxshi-yomon xabarlardan diydemiz qotdi. Ayniqsa, yoshlar unchamuncha narsaga istehzo, kinoya, bepisand, dahshatli, loqayd qarashga o'tdi. Biz o'lim xabarlarini, ofat tafsilotlaridan seskanmay qo'ydik. Arzon kuligga xaridor bo'lib qoldik. Ko'zlarimiz telefon ekraniga uzoq vaqt tikilishdan yoki piyoz achchig'idangina yoshlanadigan holga keldik. Shunday bir paytda teatr o'rindiqlarida "piq-piq" yig'lab o'tirgan nafis xilqat vakillari bir lahza ko'zimga ko'kdan tushgan malakday ko'rinib ketdi.

Yoshlar kattalar astoydil yozg'irganiday adabiyot, kitob, san'atdan yiroqlashib ketmabdi. Ko'ngli ozoda mardum bor. Ko'ngillilarni saqlab qolish va safini kengaytirish esa yaxshi asarlarni yozish, targ'ib qilish, teatr sahnasiga olib chiqish, kino qilish orqali bo'ladi.

Aktyorlar tomoshabinlarga ta'zimga chiqqan vaqti birdan momaqaldiroq gumburlaganday, bino tomi va ravoqlari silkinib ketganday bo'ldi. Sizga yolg'on, menga chin: yig'ilganlar yarim soat to'xtovsiz qarsak chaldi.

Premyeradan so'ng O'zbekiston xalq yozuvchisi, g'oya muallifi va adabiy maslahatchi Xayriddin Sultonning teran fikrlari yig'ilganlarni yana bir bor to'lqinlantirdi.

Ijodkorlar quchog'i gulga to'lib ketdi. Ushbu spektaklda asosiy rollardan birini ijro etishi kerak bo'lgan, ammo bugun oramizdan ketgan, repititsiya jarayonida sahnada yuragi xuruj qilgan ardoqli aktrisa Dono Boboxonova yod etildi.

"Layli va Majnun" spektakli Alisher Navoiy hazratlarining 585 yillik yubileyi, Javohir Sindorovning Xalqaro shaxmat federatsiyasining Nomzodlar turnirida qozongan tarixiy olamshumul g'alabasi singari milliy teatr san'atimizda bir uyg'onish bo'ldi, desak yangilishmaymiz.

Otabek BAKIROV

TAVAKKAL QODIROV TAVALLUDINING 100 YILLIGI



TURKISTON BULBULI

Fasli navbahor bo'lib, gul uza kam-kam abri naysonlar yoqqan shu kunlarda mumtoz va zamonaviy o'zbek qo'shiqlarining mohir ijrochisi, O'zbekiston xalq artisti, professor, "Zamona bulbuli" nomi bilan mashhur bo'lgan naziri yo'q xonanda Tavakkal Qodirov tavalludiga bir asr to'ldi.

Ushbu qutlug' sana YUNESKO tomonidan 2026–2027-yillarda nishonlanadigan xalqaro yubileylar ro'yxatiga rasman kiritilgan. Demak, san'atkorning qo'shiqlari yil davomida nafaqat O'zbekiston yoki Markaziy Osiyo shinavandalarini, balki butun olam san'atsevarlarini mahliyo aylaydi.

Tavakkal Qodirov 1926-yil 24-aprelda Quva tumanida tavallud topgan. Farg'ona musiqa bilim yurti va Farg'ona pedagogika institutini tugatgan. Dastlab doira va g'ijjak chalish sirlarini, so'ng ashula aytish yo'llarini o'rgangan. Ish faoliyatini Quva tumani Madaniyat uyi badiiy rahbari sifatida boshlagan. Keyinchalik Farg'ona teatrida, viloyatlararo filarmoniyada yakkaxon xonanda, direktor, Farg'ona davlat universitetida professor bo'lib ishlagan.

Tavakkal Qodirov "Qo'qon ushshog'i", "Tanovar", "Suvora", "Feruz", "Segoh" kabi mumtoz ashulalarning mohir ijrochisi sifatida shuhrat topish barobarida "Fasli navbahor", "Dilbarginam", "O'xshaydi-ku", "Dog'man", "Shunchamidi", "Jamollaringdan", "Kecha oydin", "O'ynasin" kabi o'z qo'shiqlarini ham san'atimiz oltin xazinasiqa taqdim etgan.

San'atkor Komiljon Otaniyozov va Jo'raxon Sultonov kabi buyuk ustozlardan saboq oldi. Ijodida Toshkent–Farg'ona va Xorazm ijro yo'llari uyutlarini mujassam qildi. Bu bilan cheklanib qolmay, o'z yo'lini yaratdi va unda lirikaning ustunligiga erishdi. Betakror, shirali, jarangdor va tiniq, nihoyatda keng va yuqori diapazonli ovozi bilan tom ma'noda benazir san'atkoriga aylandi.

U ustozlari kuylagan ashulalarni ulardan baland pardalarda ijro etar, sayqal berardi. Beqiyos ovoz imkoniyati sabab Tavakkal Qodirov qo'shiqlarini haligacha asliday takror ijro qilish imkonsiz bo'lib qolmoqda. Ayni shu omillar XX asr 2-yarmida Tavakkal Qodirovni yurtimiz va jahonda qanday sevimli qilgan bo'lsa, bugun ham san'at ixlosmandlarining tahsiniga sazovor bo'lishiga sabab bo'lmoqda.

Ustoz san'atkor ijodiga bag'ishlab ikkita telefilm va videofilm suratga olingan. Farg'ona-dagi san'at kolleji hamda ko'chalardan biriga Tavakkal Qodirov nomi berilgan. 2017-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvda Tavakkal Qodirovni yuksak hurmat bilan eslab, inson va san'atkor sifatida zamondosh ijodkorlarga namuna qilgan edi:

"Ko'pchilgimiz yaxshi bilamiz, ilgari "Xalq artisti" degan unvon olish uchun san'atkor necha o'n yillar samarali ijod qilishi talab etilardi. Masalan, mashhur hofiz Tavakkal Qodirov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvonini olganidan keyin – shunga e'tibor bering – oradan 25 yil o'tib, "O'zbekiston xalq artisti" unvoni bilan taqdirlangan edi".

Davlat mustaqilligining o'ttiz yilligi arafasida Tavakkal Qodirov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan o'zining betakror va yorqin ijodiy faoliyati, xalqimiz madaniyatini yuksaltirish yo'lida unutilmas xizmat qilib, avlodlarga qoldirgan boy merosi, sermazmun hayoti va ibratli insoniy fazilatlarini bilan el-yurtimiz qalbidan chuqur joy egallagan bo'ls "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan mukofotlangan.

Ulug' san'atkor xatirasiga hurmat ko'rsatish va merosini targ'ib qilish bugun ham davom etmoqda.

Gulchehra UMAROVA

E'TIROF

Tomoshabin munosabati, ayniqsa, mutaxassis fikri har qanday ijodkor uchun nihoyatda muhim. Xo'sh, O'zbekistonda adabiyot, tasviriy san'at va me'morchilik sohaslarida tanqid qay darajada rivojlangan? Yangi kitoblar haqidagi xabarlar, ularning sharhi va tahlillarini bosma va internet nashrlarida ko'p uchratish mumkin. Xo'sh, musiqa sohasida vaziyat qanday?

Professional tanqid tomoshabingamiz ijodkorni chuqurroq tushunishga, uning san'atdagi o'rini belgilash hamda kelajakdagi yo'nalishlari haqida asosli xulosa chiqarishga yordam berishi kerak.

Jurnalist va jamoat arbobi Boris Babayevning "Kultura.Uz" sayti faoliyatini alohida e'tirof etish joiz. Mazkur internet nashr nafaqat professional musiqashunoslar, balki ijod yo'lga qadam qo'yayotgan talabalarga ham minbar yaratadi. Shu orqali u Toshkentdagi deyarli barcha musiqiy voqealarni qamrab olishga muvaffaq bo'lmoqda. Yaqinda ushbu saytda musiqashunos Antonina Budarinaning O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining Katta zalida 16-aprel kuni bo'lib o'tgan "Kompozitor Akmal Safarov ijodida musiqa, ma'no va vaqt" nomli konsertga bag'ishlangan tahliliy maqolasi e'lon qilindi. Bir kompozitor ijodiga bag'ishlangan "konsert-dialog" formati muhokama va konsert qismlarini uyg'unlashtirgani, jumladan, muallifning o'zi ijroda ishtirok etgani bilan alohida qiziqish uyg'otdi.

Ertasi kuni, 17-aprel sanasida Konservatoriyaning Organ zalida yana bir yirik madaniy tadbir – O'zbekiston davlat konser-

Sahnadagi hayot nafasi

vatoriyasining 90 yilligiga bag'ishlangan "O'zbekiston kompozitorlari musiqasi" konserti bo'lib o'tdi. "Turkiston" kamer orkestri va uning badiiy rahbari Muborak Lutfullayeva ushbu kechaga puxta tayyorgarlik ko'rgan edi. Toshkent sahnalarida mahalliy kompozitorlar asarlari kam yangrashi inobatga olinsa, bu tashabbus ana shu kamchilikni bartaraf etish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Ikki soat davom etgan dasturda 14 nafar muallifning mazmun va uslub jihatidan turfa asarlari ijro etildi.

Konsert marhum kompozitor Bahrullo Lutfullayevning mashhur "Yor-yor" xori bilan ochildi (dirijyor Gulnora Malikova). Shundan so'ng dasturda turli uslub va kayfiyatdagi asarlar yangradi: Viktor Xandamyaning "Jasurlar makoni" asarida arman musiqasiga xos ohanglar aks etdi, Jahongir Shukurning "Charxpalak" asari torli orkestr uchun

moslashtirilgan talqinda ijro etildi. Anatoliy Varelasing "Koncherto grosso"sida esa solo skripkalar (Yelena Matveyeva va Asene Ovchinnikova) alohida joziba kasb etdi.

Orol dengizi fojiasi – barchamizning umumiy dardimiz. Musiqqa esa bu haqda barcha xalqlarga tushunarli tilda so'zlay oladi. Konsertda kompozitor Oydin Abdullayeva "Qoraqalpoq fantaziyasi" asarini taqdim etdi. Kamer orkestri bilan uyg'unlikka kirishgan nay va chanqovuz ovozlari (Botir Do'simbetov va Qahramon Rashidov ijrosida) tomoshabinlarda katta taassurot qoldirdi.

Konsert Mustafo Bafoyevning "Shodiyona" va Rustam Abdullayevning "Lazgi" asarlari bilan yakunlandi. Milliy ruhda bu musiqalar ko'plab mamlakatda mashhur.

Konservatoriyaning Organ zalida o'tkaziladigan konsertlarda doimo poytaxt meh-

monlari ham ishtirok etadi. Ulardan biri Moskavadan kelgan kinoshunos, Rossiya Kinematografchilar uyushmasi a'zosi, kino tarixi o'qituvchisi Anatoliy Sinitin o'z taassurotlarini quyidagicha ifodaladi: "Men odatda konsertlarda akademik kanonlarga muvofiq qurilgan, juda uzun, kuchli va qat'iy rejalashtirilgan asarlarni tinglashga o'rganganman. Bugun esa menga har bir asarda o'ziga xos, bir-biridan keskin farq qiladigan musiqa to'lqini yog'ildi. O'zbekistondagi kabi sahnadagi hayot ham jonli va qat'iy ijobiy ruhda kechmoqda!"

Musavvir chizgan rasmini devorga osib qo'yish mumkin, ammo kompozitor yaratgan musiqa asari munosib sharoitlarda yangrashi kerak. Asarning tug'ilishi esa faqat tinglovchilar bilan o'zaro muloqotda sodir bo'ladi. Kompozitorimiz asarlari ko'proq ijro etilishiga, bir martalik asarlar bo'lib qolmasligiga erishish zarur. Eng muhimi, zallar va kompozitorlarimizning ko'ngillari to'lsin.





Boshlanishi 1-sahifada.

Tan olish kerak, Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik xavf-xatarlar va barqaror rivojlanish masalalari so'nggi yillarda global va mintaqaviy kun tartibining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Suv bundan buyon mintaqamiz uchun yolg'iz iqlim muammasi emas, balki xavfsizlik masalasiga aylandi. Zero, suvni asrashga yondashuv yomonligi oqibatida mintaqaning yillik yo'qotishi 2 milliard AQSH dollarigacha yetayпти. Mintaqa aholisining soni 2050-yilga borib 100 million kishidan ortadi, Markaziy Osiyoni suv bilan ta'minlaydigan tog' muzliklari esa oxirgi 50 yilda uchdan biriga erib ketdi. Buning ustiga, iqlim o'zgarishi kuzatuvchilari Markaziy Osiyo mintaqasi dunyoning boshqa qismlariga nisbatan ham kuchli qizib borayotganidan ogohlantirmoqdalar. Yerosti suvlari qochishi, dehqonchilikka yaroqli bo'lgan yerlarning saholashishi ham kuzatilyapti, agar vaziyat shu sur'atda davom etsa, chorak asrdan so'ng hosildorlik bugungi kunga solishtirganda 40 foiz tushib ketishi mumkin.

Suvdan samarasiz foydalanish oqibatlarini allaqachon global miqyos kasb etgan. Orol dengizi tubidagi tuz hatto Shimoliy qutbdan ham topilgan. Ekspertlarning baholariga ko'ra, 2040-yilga borib, Orol dengizi havzasida suv resurslari taqchilligi deyarli ikki barobar – yiliga 20 milliard kub metr gacha oshishi mumkin. Bu ichimlik suvi ta'minoti, ekologiya, agrar sektor, energetika va ijtimoiy barqarorlik uchun qo'shimcha xavf-xatarlarni yuzaga keltiradi. Bu umumiy muammolarga nisbatan yagona yondashuvni ishlab chiqish qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Ayrim hududlarda eskirgan infratuzilma ortidan suv yo'qotishlari 40–50 foizgacha yetadi. Suv va iqlim masalalari ekologik muammo toifasidan chiqib, milliy va mintaqaviy xavfsizlik masalasiga aylandi. U iqtisodiy rivojlanishga, energetika va oziq-ovqat barqarorligiga ta'sir qiladi. Amudaryo va Sirdaryo havzalarining oqimi 2050-yilga borib 5–13 foizgacha kamayishi mumkin.



EKOLOGIK DIPLOMATIYA yoki barchamiz bir oroldamiz

Suv tanqisligi va qishloq xo'jaligi daromadlarining tushib ketishi ichki iqlim migratsiyasini keltirib chiqarishi, aholining ommaviy ravishda bosim ostidagi shaharlarga ko'chishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois mintaqqa qat'iy suv tejash iqtisodiyotiga o'tishi zarur. Iqlim o'zgarishi faqat suv tanqisligi emas. Bu – ortib borayotgan noaniqlikdir. Oylar va yillar oldindan an'anaviy rejalashtirishga tayana oladigan davr ortda qoldi. Bugun vaziyat keskin o'zgarib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan davlatimiz rahbarining Ostona shahrida bo'lib o'tgan Mintaqaviy ekologik sammit va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishidagi nutqlari ushbu muammolarga nisbatan yangicha konseptual yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nutqlar nafaqat mavjud ekologik muammolarni tahlil etish, balki ularni hal etishning aniq institutsional va strategik mexanizmlarini taklif etishi bilan ham

ajralib turadi. Shu jihatdan, O'zbekiston Ekologik sammitida ilgari surilayotgan "Barqaror kelajak uchun umumiy nigoh" konsepsiyasini zamonaviy ekologik siyosatning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qo'llab-quvvatlamoqda. Bu yondashuv davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, resurslarni adolatli taqsimlash va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali umumiy ekologik xavf-xatarlarni yumshatishga qaratilgan.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi ekologik hamkorlik so'nggi yillarda sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilgani ham alohida e'tiborga loyiq. Mintaqada "yashil ham tartibli", iqlim moslashuvi strategiyalari va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan dasturlarning qabul qilinishi ekologik diplomatiyaning institutsional asoslarini mustahkamlamoqda. Bu esa o'z navbatida, transchegaraviy ekologik muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Prezidentimiz tomonidan har ikki sammitda ilgari surilgan tashabbuslar tahlili shuni ko'rsatadiki, ular strategik jihatdan chuqur o'ylangan va o'zaro bog'liq tizimni tashkil etadi. Masalan, Ekologik sammitdagi nutqda Prezidentimiz ilgari surgan "toza havo" konsortsiyumi tashkil etish tashabbusi sanoatni modernizatsiya qilish va atmosfera ifloslanishini kamaytirishga xizmat qilsa, cho'llanishga qarshi kurash markaziga mintaqaviy maqom berish ilmiy tadqiqotlar va monitoringni kuchaytirish, erta ogohlantirish imkonini beradi. Shuningdek, "Markaziy Osiyo yashil savdo yo'lasi" tashabbusi ekologik standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Shavkat Mirziyoyev, shuningdek, xalqlarimizning suvga hayot manbai sifatida ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish borasidagi ko'p asrlik an'analarini qayta tiklash zarurati alohida e'tibor

qaratdi. Uning fikricha, agar jamiyatning suvga bo'lgan munosabati o'zgarmasa, muhandislik yechimlari kutilgan samarani bermaydi. Shu bois, suvdan oqilona foydalanishni har bir kishining kundalik odatiga aylantirish zarur.

Shuningdek, fermerlar va sanoatchilarni suvni tejovchi zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga amaliy jihatdan o'rgatadigan "Kelajak suvi" mintaqaviy dasturini ishga tushirish taklif etildi.

Afg'oniston bilan konstruktiv hamkorlikni mustahkamlash va uni iqlim, ekologiya, qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha mintaqaviy hamkorlikka jalb etish muhimligi ta'kidlandi. Istiqbolida Orol havzasidagi barcha mamlakatlar, shu jumladan, Afg'onistonning huquq va majburiyatlarini hisobga olgan holda suv resurslarini taqsimlash bo'yicha mintaqaviy shartnomaviy-huquqiy bazani shakllantirish zarur.

Shuningdek, Prezident qo'shni mamlakatlar yetakchilarini shu yil sentyabr oyida Samarqandda bo'lib o'tadigan Suvni tejash bo'yicha butunjahon forumida ishtirok etishga yana bir bor taklif etdi. Bu tashabbuslar Markaziy Osiyoda suv resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlash va ekologik muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, davlatimiz rahbarining ikki sammitdagi nutqi Markaziy Osiyoda ekologik siyosatning yangi yondashuvlarini shakllantirishda muhim strategik asos bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv zamonaviy "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi. Agar mintaqadagi davlatlar o'zaro ishonch, siyosiy iroda va institutsional hamkorlikni mustahkamlasa, Markaziy Osiyo nafaqat ekologik barqarorlikka erishishi, balki global miqyosda raqobatbardosh va innovatsion hududga aylanishi mumkin.

Shunda azaliy maqollarimiz yana jonlanadi, keksalarimiz yana "Suvdek serob bo'l, bolam" deb duo qilishadi.

Iqbol MIRZO

“Har kimki Mashrabga yetibdur..”

Boshlanishi 1-sahifada.

– Shoir haqida haqiqat va afsonalar qorishib ketgan. Afsuski, bizda real tarjimai hol bitish rasm bo'lmagan. Borlarida ham manzara ta'rif va tavsif bo'yog'ida loyqalangandek ko'rinadi. Mutaxassis sifatida uning biografik xarakterdagi she'rlari haqida nima deysiz?

– Adabiyotshunos olim Muhsin Zokirov fikriga ko'ra, quyidagi misralar shoirning Namanganda yashagan davrining so'nggi damlari g'oyatda qiyinchilik va ta'qiblar bilan o'tganini ochiq-ravshan isbotlaydi. Shuni aytish joizki, qissada keltirilgan bu qaydlar shoirning o'z she'rlarida ham aks etgan va biografik xarakterga ega bo'lgan irqoriy ta'kidlar bilan to'la-to'kis quvvatlanadi.

*Namangandek tabarruk yurt menga tor o'ldi,
Mullolar qutqusidan aziz boshim xor o'ldi,
Onam, singlim mushqpar parcha nonga zor o'ldi,
Bo'ynim egib, tiz cho'kmoq, naylay, menga or o'ldi,
Ko'ring emdi, yoronlar, ko'ksim lolazor o'ldi.*

*Kufring haddan oshdi deb, xonam yelg'a berdilar,
Tilni kesmoq joiz deb a'lam fatvo qildilar,
Ko'zni o'ymoq joiz deb, jallod sari eltdilar,
Sangsar etib so'filar qonim yerga to'kdilar,
Ko'ring emdi, yoronlar, ko'ksim lolazor o'ldi.*

Asar mazmunidan anglashiladiki, shoir turli tazyiq va ta'qiblar tufayli o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'lgan. Shoirning Namangan hokimlari tomonidan quvillishi uning haqida xalq orasida keng tarqalgan manobalarda ham yozilgan.

Masalan, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti folklor fondida saqlanayotgan rivoyatlarda shunday deyiladi: "Shoh Mashrab Namanganda yurganda hech kim uning gapini e'tiborga olmagan, she'rlariga quloq solmagan. Boz ustiga xurofot va jaholat botqog'iga botgan chalamullalar shoirning ilohiy ishqi mohiyatiga yetib borolmay, shakkoklik va gumrohlikda ayblab, "iki dunyoni tor-u tang" aylagan".

Shu taxlit Mashrabga o'zi tug'ilib o'sgan shahri torlik qilib, bu tabarruk yurtdan bosh olib ketishga majbur bo'lgan. Mutafakkir shoirning muqaddas Vatan, ona yurt, tug'ilib o'sgan maskan va uning qadr-qimmatini ulug'lagan quyidagi g'azali shunday vujudga kelgan:

*Namangandin ketar bo'lsam, meni yo'qlar kishim bormu,
G'ariblik shahrida o'lsam, meni yo'qlar kishim bormu?
Qani qavm-u qarindoshim, men yo'lda bo'lsa yo'doshim,
Ko'zimdin oqizib yoshim, meni yo'qlar kishim bormu?
Muhabbat sharbatin ichtim,*

*qozondek qaynabon toshitim,
Bu foni dunyodin kechtim, meni yo'qlar kishim bormu?
Tushubdur boshima savdo, ramuzi ishqdin g'avg'o,
O'ziga ayladi shaydo, meni yo'qlar kishim bormu?
Turarga toqatim yo'qtur, yurarga holatim yo'qtur,
Yurakda ishq o'ti cho'qtur, meni yo'qlar kishim bormu?
Qarorim yo'q turay desam, Namangonda yuray desam,
Jahonni sayr etib kezsam, meni yo'qlar kishim bormu?
Bu miskin zor Mashrabni kishi holini bilmaydur,
Bu yerdin bosh olib ketsam, meni yo'qlar kishim bormu?*

– Yana rivoyatlarga murojaat qilsak, Mashrab dastlab Qashqarga borib, Ofoqxo'jaga murid tushadi. Yigirma yil xizmatini qilib, turli savdolarini boshdan o'tkarib, so'ng Balxga borib, Mahmud Qatag'onning qahriga uchrab, dorga tortiladi. Asli-da-chi?

– Mashrab tug'ilib o'sgan ona shahri Namangandan chiqib, juda ko'plab shahar va mamlakatlarga, Yaqin Sharq davlatlariga, Yevropa, Osiyo, Afrika qit'alarigacha sayohatda bo'ladi. She'riyatidan ko'plab mamlakatlar xalqlarini bahramand etdi. "Mashrabi devona" o'z fe'l-atvoriga ko'ra bir muhitda muqim turmog'i dushvor edi. Shuningdek, uning tug'yonli tabiatini oddiy afkor omma, o'z ma'nosidagi fuqaro sig'dirolmasdi. Taqdiri azal shoirni darbadar qilib yaratgandi.

Birma-bir sanaydigan bo'lsak, u Qashqar, Yorkent, Xo'tan, Urumchi, Turfon, Badaxshon, Balx, Qunduz, Mozori Sharif, Hirot, Andxo'y, Buxoro, Toshkent, Chimkent, Samarqand, Ho'qand, Nasaf, Bag'dod, Damashq, Ko'nyo, Qudus, Makka, Madina, Qohira, Halab, Karbalo, Kashmir, Isfaxon, Mashhad, Sheroh, Tabriz, Kobul, Shibirg'on, Xo'jand kabi jami 87 ta davlat va shaharlarga borgan, bu sayohatlar davomida o'sha yerlardagi aziz-avliyolar qadamjolarini ziyorat qilgan.

Shu ma'nodan, Mashrabni – dunyoni DARBADAR kezib, Haqni izlagan, uning ishq bilan yongan shoir, deb atasak, o'ylaymanki, xato bo'lmaydi.

*Darbadar bo'ldum, jahonni ko'p tamosho ayladim,
Hech gulni ko'rmadim olamda bo'lg'ay xorsiz.
Mashrabo, vaqti nadomatdur, birodarlar qani?
Istiqomat qilma dunyoda pari ruxsorsiz.*

– Mashrab ijodi tadqiqi bilan ko'plab olimlarimiz, jumladan, jadid bobomiz Abdurauf Fitrat ham shug'ullanganini bilamiz. Bu tadqiqotlarning sababi va maqsadi ayon. Lekin o'ta milliy va islomiy bo'lgan Mashrabning ijodi ne sababdan Yevropa ilm ahli diqqatini jalb etgani qiziq. Xususan, sayyoh Herman Vamberining bu zoti muxorakka murojaat qilishi zamirida qanday muddao bor edi?

– Iqboljon, Vamberining yondashuvi ilmiy tahlilga asoslanmagan. U kishim Yevropa ziyolilariga Turkiston adabiy muhiti to'g'risida ma'lumot o'rinda taqdim etgan shoirilarimiz – Navoiy va Bobur qatorida Mashrabni ham tilga olib, ijodidan namunalar keltirgan. Mutaxassislariga xos o'rganish va izlanish dastlab ajnabiylardan Ditre de Renn, Berner Grener, Yoxannes Avetaranannlar qo'l urgan bo'lsa, XIX asrning 2-yarmidan A.Xoroshxin, V.Nalivkin, N.Veselovskiy, N.Pantusov, N.Likoshin, V.Vyatkin, A.Kartsev, L.Dmitriyeva, G.Snesarev, N.Ostromov, N.Petrovskiy, V.Belyayev, A.Kononov, N.Mikluxe-Maklay, A.Molchanov, M.Sale, A.Semyonov, O.Smirnova, A.Shmidt singari olimlar mashrabshunoslik-sharqshunoslik faniga ulkan hissa qo'shgan. Mana bu haqiqiy ilm edi.

Ularning qiziqishi sababini bir so'z bilan izohlab bo'lmaydi. Ma'lumki, adabiyot faqatgina so'z san'ati bo'lmay, mansub xalqning fe'l-atvori, dunyoqarashi, hissiyoti, qadriyati haqida ham ma'lumotnomadir. Bu manbani har kim o'z manfaatli yuzasidan o'rganadi. Qolaversa, XVIII asrga kelib, Ovrupo ilm-fanda yuksak taraqqiyga erishdi va bizda ko'z o'rganib, ko'ngil ko'nikib qolgan oddiy aqidalargacha ular uchun tadqiqot manbayiga aylandi. Deylik, Mashrabni yetuk naqshbandiya targ'ibotchisi hamda vakili sifatida tariqat obyektini sifatida o'rgangan olimlar ham bor.

– Fikri oqizimcha, shoh Mashrab yoki xalqona aytganda devona Mashrab shu qadar xalqimiz yuragidan joy olganki, har bir qishloq yo'ovulda, shahru kentda ko'plab mashrabshunoslarni topish mumkin. Nafaqat O'zbekistonda, balki yondosh va qardosh ellarda ham mashrabsevar muxlislarini uchratasiz. Bolaligimda mahallamiz ayollari qissago'ylikka yig'ilib, shoir g'azallarini, "Mashrabi devona" dostonini yig'lab,

ohangga solib o'qiganlarini ko'p eshitganman. Keling, biz professional milliy mashrabshunoslar haqida gaplashaylik.

– O'lkamizda shoirning zamondoshlari Pirmat Setoriy va Is'hoq Bog'istoniydan boshlangan mashrabshunoslik tobora rivoj topib borganini ko'ramiz. Xususan, Siz tilga olgan Fitrat, Ayniy, G'afur G'ulom, Ibrohim Mo'minov, Vohid Zohidov, Vohid Abdullayev, Aziz Qayumov, Najmiddin Komilov, Abduqodir Hayitmetov, Botir Valixojayev singari atoqli olim va adiblarimiz, ulardan keyin yana o'nlab tadqiqotchilarimiz Mashrab ijodini chuqur va batafsil o'rganganini e'tiborlidir.

O'zim misolimda aytadigan bo'lsam, dastlab "Mashrabning ijtimoiy-falsafiy qarashlari" mavzusida nomzodlik, so'ngra "Boborahim Mashrab va XVII-XVIII asrlarda ijtimoiy-axloqiy fikr rivoji" bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini himoya qildim. Uzoq yillik mehnatlarim samarasi o'laroq, ko'p jildlik "Mashrabi mo'tabar o'zum", shuningdek, mavzuga oid o'nega yaqin monografiya va qo'llanmalarim, respublika va xorijiy mamlakatlar jurnallarida 250 dan ko'proq ilmiy-ma'rifiy maqolalarim e'lon qilindi.

– Qoyil! Hafsalangiz va ixlosingizga tasanno. Bugungi kunda "ko'ngil quli – Mashrab" ijodiga e'tibor ko'ngildagidek deya olasizmi?

– Mashrabning bebaho merosi uch yarim asrdan beri bizning zamonimizgacha yetib kelib, xalqimiz ma'naviyati yuksalishiga va Sharq falsafasi rivojiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda. Shavq shoiri Mashrab hazratlari ijodiga oddiy xalqning hurmat va ehtiromi hamisha baland bo'lgan, bugun ham bu ixlos darajoti o'liydan quyi engan emas. Lekin Mashrabni yuzaki biladigan, faqat qo'shiqlarini eshitgan, xalq og'zaki ijodidagi to'qimalarni asl haqiqat deb qabul qiladigan anoyi ziyolilar ham bor. Yevropa klassisizmi haqida doktorlik dissertatsiyasi yozayotgan bir dotsent hatto menga: "Qalandar, darvesh, devona shoirini buncha ko'p e'zozlab yozgansiz", deya e'tiroz ham bildirgan.

Nokamtarlikka yo'yamang-u, men Jizzax viloyati yoshlarini Mashrabni eng ko'p o'qigan va g'azallariga oshno bo'lgan yoshlarimizdan deb bilaman va o'zim ko'p yillar Jizzax davlat pedagogika universitetida dars berib kelganim uchun talabalarimga Mashrabga oid kitoblarni muttasil tuhfa qilib kelaman.

– Domla, keling, bo'lmasa Namangan davlat universiteti bilan Siziniklar o'rtasida mashrabxonlik mushoirasi o'tkazaylik. Bu bahsdan, o'ylaymanki, hammamiz manfaatdor bo'lamiz.

– Mayli, ma'qul. Bundan ancha yillar oldin mashrabxonlik tadbirida ishtirok etish uchun taklifga binoan Namangan viloyatiga bordim. U yerda viloyat televideniyesi va xalq oldida chiqishim odamlarga ma'qul tushgan, shekilli, shoir va yozuvchilar bilan shahar hokimiyati oldida turgan paytimizda bir yigit oldimga kelib, uyiga mehmonga taklif qildi. Yonimdagi sheriklarim oldida xijolat tortib turganimda, u yigit: "Uyimda ikkita katta qo'chqorim bor, birini Siz va sheriklaringiz poyiga so'yaman", deb qat'iy turib oldi. "Nega?" degan savolimizga: "Namanganning ulug' farzandi Mashrab uchun har bir xonadon Sizni mehmon qilsa arziydi", deya javob berdi. Ko'zimga yosh keldi. Vaqt tig'izligini aytib, uzr so'radik. Mana, oddiy hunarmand yigitning Mashrabga hurmat-ehtiromi. Namangan ahli Mashrabni shunday e'zozlaydi.

Avvallari Mashrabning tavallud bayramlari Namangan shahrida yuqori saviyada o'tkazilganini yaxshi eslaymiz. Nahorda elga osh tarqatilar, ulug' ajdodimiz ruhiga duo-yu fohialar, so'ng shoir g'azallaridan namunalar o'qilardi. Maydonda keng hajmda kitob ko'rgazmalari bo'lardi. Toshkentdan mashhur aktyor va xonandalar taklif etilardi.

Mashrab ijodi chin dildan yodga olinib, chuqur va keng miqyosda o'rganilar, targ'ib etilardi. Bayram tadbiri bois she'riyat nashidasi, demak, insoniy ezgu tuyg'ular qalblarga muhrlanardi. Korxonatashkilotlar rahbarlari Mashrab haykali poyiga hashamdor gulchambarlar qo'yib, hurmat bajo keltirishardi.

Bugun viloyat rahbariyati, mutasaddi shaxslarda Mashrab ijodiga nisbatan e'tibor susayib borayotganday nazarimda. So'nggi yillarda Mashrabning tavallud sanalari bilan bog'liq tadbirlar saviyasini kuzatgan kishi bunga o'zi ham amin bo'lishi mumkin.



– Domla, Mashrab nafaqat bir viloyat, balki butun turkiy dunyo shoiri. Men namanganliklarning shoir nomi bilan naqadar faxrlanishi, yodaki bilishini ko'p bora kuzatganman. Ehtimol, hozirgi Siz aytgan holat katta tantana, keng qamrovli mashrabxonlik arafasidagi taradduddir.

Fanga qaytamiz. Siz bir yo'la fanning uch yo'nalishi – falsafa, filologiya va pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalarini yoqlagansiz. Bu shunchaki qiziqish yo statistika uchunmasdir?

– Ha, bolaligimdan ilm yo'lga havas bilan qaraganman. Xudo xohlarsa, yana ikkita himoyadan so'ng Ginnesning rekordlar kitobiga ham kirsam kerak. Sportchi o'z sohasida og'ir vazifani bajarгани kabi olim ham fanda o'z og'ir vazifasini bajaradi. Mening shiorim: qiyin ishni qiyin deb tashlab ketish emas, uni uddalashga erishmoq joiz. Bu mashaqqatli va riyozatli ishga, albatta, tinimsiz mehnat bilan erishiladi. Har bir ilmiy ishida bugungi kunda mamlakatimizda ilm-fanga qaratilayotgan yuksak e'tibordan kuch-quvvat olaman.

Akademik Ne'matilla Ibrohimovning fikricha, birgina Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida to'plangan ajdodlarimiz merosini o'rganish uchun uch yuz oltin yil zarur bo'lar ekan. Qarang, biz qanday bebaho meros vorislarimiz!

Yaqinda muhtaram Prezidentimizning tashabbusi bilan poytaxtimizda o'chilgan Islom sivilizatsiyasi markazining mahobati va salobatini ko'rib, biz qanchalar buyuk ishlariga, mo'jizalarga qodir xalq ekanimizga yana bir bor imon keltirdim. Men mana shunday mustahkam tarixiy ilidlariga ega xalq jahonda ilm-fan sohasida, albatta, o'z so'zini aytishiga, yurtimizdan hali ko'plab buyuk olimlar, Nobel mukofoti sohiblari yetishib chiqishiga ishonaman!

– Barchamiz mana shu ishonchda sobit ekanimizni ta'kidlagan holda, bugungi mazmunli suhbat uchun Sizga rahmat aytamiz, domla. Ilmiy-ijodiy ishlaringizga muvaffaqiyat tilaymiz!

I.MIRZAALIYEV suhbatlashdi.




YANGI NASHR

“...abyot gul, ash'or gul”

KUYGA JON BAG'ISHLAGAN MUXAMMAS

Qaysi falak burjining mehri
puranvorisen,
Qaysi sadaf durjining gavhari
shahvorisen,
Qaysi Xo'tan ohusin no'fayi totorisen,
Qaysi chamanzorning lolayi gulnorisen,
So'yla menga, ey sanam,
kimni sevar yorisen?



Xorazmiy shu bayt asosida tazmin o'laroq yetti bandli musaddas bitishi va har band yakunida buyuk mutafakkir o'giti tarje – takror kelishida ham yangilik ko'rinadi:

Ey nafs-u havo amrig'a ma'muru-l hol,
Ko'nglung aro joygir afgor mahol,
Jam' aylamak istabon

o'kush mol-u manol,
Ko'rguzma har ishdada zinhor isti'jol,
Har kimsaki aylasa oshuqmasni xayol,
Yafrog'ni ipak qilur, chechak bargini bol.

Xorazmiy she'rleri, yuqorida aytganimizdek, avvalo, ohangdorligi bilan ajralib turishi rost. Jumladan, "Devon"da "Ey rashki pari, sham'inga parvona bo'lubman", "Qolib ahbobdin tanho-u zor o'lg'ong'a yig'larman", "Agar ul sarvi ozodimg'a emmassen qul, ey qumri", "Toki mehning jismi vayronimdadur jon, ey pari" singari ichidagi ohangi yaqqol o'ynoqlab ko'rinib turgan o'nlab g'azallar borki, o'z bastakor va hoziflarini kutayotganga o'xshaydi.

XO'SH, KOMIL XORAZMIY KIM O'ZI?

Komil Xorazmiy nomini ko'pchilik asosan "Lazgi" so'zining muallifi sifatida bilishi mumkin. Uning hayoti va faoliyati haqida hamma ham to'liq ma'lumotga ega emas. "Jadid" gazetasining 2026-yil 20-fevral sonida e'lon qilingan Ro'zimbay Hasanning "Komil Xorazmiy kim edi?" nomli maqolasidan ma'lum bo'lishicha, uning asl ism-sharifi Pahlavon Niyoz Muhammad, Komil Xorazmiy esa taxallusidir. 1825-yili Xivada mudarris Abdulla oxun oilasida tug'ilgan. Otasidan arab va fors tillarini, Xivada asirlikda yashayotgan askarlardan rus tilini o'rgangan. U shoir sifatida o'z davrida g'oyatda mashhur bo'lish bilan birga, xattotlik va musiqa san'atida ham yuksak iqtidoriga ega bo'lgan. Shu bois, 31 yoshida Xiva hukmdori Said Muhammad uni saroyga aynan xattotlik vazifasiga taklif qilgan. O'z iqtidori bilan mirzaboshilikka, so'ngra saroyda bosh vazirdan keyin turuvchi eng yuqori mansab – devonbegi lavozimiga tayinlangan, xonlikning barcha hujjatlari va iqtisodiy kirim-chiqimlari aynan devonbegi tomonidan yuritilgan.

U real vaziyatdan kelib chiqib sulhparvar siyosat yuritgan, xususan, qilich-qalqon, cho'qmor, pilla miltiq kabi ibtidoiy yaroqlar bilan qurollangan xonlik lashkari 1873-yilning bahorida zamonaviy qurollar bilan uch tomondan bostirib kelgan chor hukumati qo'shiniga qarshi tura olmasligi, oqibatda yurt vayron bo'lishini anglagan holda, sulh tarafdori sifatida maydonga chiqqan, "Gandimiyon shartnomasi" matnini rus va o'zbek tillarida aynan Pahlavon Niyoz Muhammad yozgan.

Komil Xorazmiy jadid harakatiga qo'shilgan, Islomxo'ja va boshqa vohalik jaddilar bilan yaqin aloqada bo'lgan, Xivada ilk yangi maktabni ham aynan u ochgan, maktab o'quvchilari qisqa vaqtda yuzdan oshgan. Muhammad Rahimxon soniy bilan Peterburgga borib qaytgach, Turkistonda ilk toshbosma Xivada tashkil qilinishiga bosh-qosh bo'lgan. "Tanbur chiziqlari" nomli o'zbek nota yozuvini ixtiro qilishi Komil Xorazmiyning milliy musiqa san'atimizdagi buyuk xizmatlaridandir.

Darvoqe, biz muxtasar keltirgan bu kabi qiziqarli ma'lumotlar "Devon"da uchramaydi. Shu bois, kitob mutolaasiga kirishayotgan adabiyot muxlislarga gazetasimizning doimiy muallifi Ro'zimbay Hasanning ushbu maqolasini qo'shib o'qibshini tavsiya etamiz.

Ikrom ISKANDAR

MULOHAZA

SOXTA KITOBXONLIK

Yigirma yillar oldin qishloqlardagi kutubxonalar kollejar ixtiyoriga o'tkazildi. Aholi adadi o'n besh mingga yetgan qishlog'imizning "sho'ro idorasi" nomini olgan ko'rimsizgina binosining torgina xonasida joylashgan kutubxonada o'n mingdan ortiq kitob bo'lardi.

Buton umri ushbu kutubxonada mudira bo'lib, nafaqaga chiqqan opam "Kutubxona fondidagi kitoblarning bir qismini makalaturaga topshirar emishlar. Borib ko'r, keraklari bo'lsa olarsan", deb qoldi.

Bordim, ko'rdim va... makalaturaga topshirayotgan ikki mingga yaqin kitob orasidan faqat beshtasini tanladim. Tanish mas'ul ustma-ust uyib qo'yilgan kitoblarni birma-bir ko'zdan kechirayotganimni ko'rib "Baribir topshiramiz, keragicha oling!" degan bo'lsa-da, nega faqat beshtasini oldim?

"Sovet xalqi dunyodagi eng kitobxon xalq" degan ibora o'tgan asrning yetmishinchi yillarida muomalaga kirgan. Bu dabdabali ibora shiorga aylanib, deyarli barcha kutubxonalar peshtoqlarida o'qlovdek harflar bilan yozib qo'yilardi.

Aslida, bu alqovning poydevori "Barcha sohalarda Amerikani quvib o'tamiz!" shiorini davlat dasturiga aylantirgan Nikita Xrushchev zamonida qo'yiladi. Sho'ro davlati tashkil topganligining qirq yilligi katta tantanalar bilan nishonlangan davrda chop qilinayotgan kitoblarning adadi eng ko'pi bilan qirq ming-ellik ming bo'lgan. Eng ommaboplaridan undan sal ko'proq. Ikkinchi jahon urushi davrida "askarlarning vatanparvarlik ruhini ko'tarish" maqsadida yaratilgan asarlar adadi ham olti raqamga yetmagan. Konstantin Simonovning "Meni kutgil" she'ri kirgan shapaloqdek to'plami bor-yo'g'i ellik ming nusxada chop qilingan.

Yuz, yuz ellik, ikki yuz minglik tirajda kitoblar chop qilishga o'tgan asrning yetmishinchi yillarida rosa zo'r berila boshlangan. Hatto tez tarqab ketgan yangi asarni ketma-ket qayta chop qilish tajribasi ham shu davrda sinovdan o'tkaziladi.

Aholi soni ikki yuz ellik million kishiga yetgan mamlakatda taniqli bir adibning kitobi yuz ming nusxada chop qilinishi va kitob do'konlarida uzoq vaqt chang bosib yotmasligi "sovet xalqi dunyoda eng kitobxon xalq" deyish uchun asos bo'larmidi?

Umuman olganda sovet zamonida son va sifat uyg'unligi qay darajada edi? Kitoblar o'quvchi qiziqishi va didiga mosmidi yoki o'quvchi didini majburan chop qilinayotgan son-sanoqsiz kitoblarga moslashga majburiyidi?

Savolni shu tarzda qo'ygan ma'qul.

1971-yili institutga kirish imtihonidan yiqilgan Gulsara opam qishloq kutubxonasiga mudira bo'ldi. O'sha vaqtda butun qishloqda kutubxonachilik mutaxassisligiga o'qigan birorta odam bo'lmagan (opam keyinchalik shu soha bo'yicha sirtidan o'qidi).

Har oy adog'ida qishloqda "kitobxonalar soni oshishi"da opamga yaqin ko'makchi bo'lardik. Opam keltirgan bir dasta "kutubxonaga a'zolik daftarchasi"ga umrida kutubxona ostonasini hatlab o'tmagan kishilar oy davomida qaysi kitoblarni "o'qiganini" qayd qilardik. Esimda, amakimizning ayoli – yetmishdan o'tgan Tursun momo yoki elatimiz brigadiri Egam aka va boshqa o'nlab kishilarning "a'zolik daftarchasi"ni to'ldirib borish mening zimmamda edi. Opamning ko'rsatmasi bo'yicha Tursun momo har oyda Leninning tanlangan asarlarining kamida ikki tomini "o'qib chiqqan" bo'lishi, bundan tashqari rus klassiklarining biror asarini ham mutolaa qilishi shart edi. Tursun momo umrida vohadan tashqari chiqmagan, yana bolaligi "yurt buzilgan davr"larga to'g'ri kelganidan maktab ko'rmagan, pensiyasini olgani haqida ro'yxatga "+" belgisini qo'yishni arang o'rgangandi. Rus tilida birorta so'zni bilmagan kampir shu taxlit yil davomida rus klassiklarining o'nlab asarlarini "o'qir", Lenin va Marks asarlarini "xatm" qilardi.

Va yana marksizm klassiklarini majburan "mutolaa qilish"ga mahkumlar – talabalar qatlami ham bor ediki, ular barcha O'Y (oliy o'quv yurti) da o'qitilgan "Ilmiy kommunizm" fanidan imtihon topshirish uchun yilda bir bora o'sha tom-tom asarlarni varaqlashardi. Bu varaqlash kerak maqoladan kerak iqtibosni ko'chirib olish va yodlash bilan nihoyasiga yetardi. Shundan kelib chiqib, qancha talaba bo'lsa, barchasi o'qish davrida Lenin va boshqa dohiylar asarlarini "takror va takror o'qiganlar" ro'yxatidan joy olishardi.

To'g'ri, o'sha davrlarda kutubxonaga a'zo bo'lganlari soni oz emasd. Ularning aksari ziyolilar, maktab o'quvchilari bo'lib, ular ko'proq o'zbek adiblarining yangi chiqqan kitoblarini o'qishardi. Hatto ayrim yangi chop qilingan roman yoki qissalarni navbati bilan o'qishgan. Ammo...

Tepadagi mas'ullar faqat tanlanganlar – o'qishga havasmandlarga emas, "barcha sovet xalqi kitobxon bo'lishi shart"ligini talab qilishgani uchun oy adog'ida bizlar tunda shisha chiroq yorug'ida mukka tushib, "a'zolik daftarcha"larini yangidan yangi yozuvlar bilan to'ldirar, bu yoqda maktabdan uyga berilgan vazifalar qolib ketardi. Opam har oyda "falon kishi faloncha kitob o'qishi kerakligi" haqida yuqoridan berilgan reja

bajarmasa tanbeh eshitar, bu ko'rsatkich har oyda yuqorilab bormasa, hatto ishdan bo'shatilishi ham mumkin edi-da.

Bo'sh vaqtlari opam mudira bo'lgan kutubxonaga borganimda javonlarda terilib turgan bir xil rangli muqovali Leninning 55 tomliqi opam uchun qo'shimcha tashvish ekanini ko'rganman. Chunki ulami har haftada yaxshilab artish – changdan tozalash talab qilinadi. Bu kitoblarni varaqlash u yoqda tursin, qo'lga olib ko'radigan odamning o'zi bo'lmagan. Faqat "a'zolik daftarcha"larida sho'ro dohiysi asarlari "qo'lma-qo'l bo'lib o'qilardi", xolos.

O'sha davrda amalda bo'lgan tartib bo'yicha Moskva nashriyotlarida chop qilinadigan rus va boshqa millatlar yozuvchilarning kitoblari barcha kutubxonalariga taqsimlanardi. Qishloqda rus tilini biladigan odamlar sanoqli bo'lgani sabab bu asarlarni ham bizlar oy adog'ida "kitobxonlarga majburan o'qitish" majburiyatida qolardik. Opam aytishicha, o'zbek tilidagi kitoblardan ko'ra rus tilida chop qilingan kitoblarni ko'proq "o'qitish" bo'yicha topshiriqlar berilgan.

O'tgan asrning saksoninchi yillarida sho'ro davlatida yuz mingga yaqin kutubxona faoliyat yuritgan. Bu – o'sha yuz ming adadda chop qilinadigan kitoblarning aksar qismi kutubxonalariga taqsimlanadi, ya'ni javonda chang bosishga mahkumligini anglatadi. Endi tasavvur qiling, kemasozlik yoki o'rmon xo'jaligi mutaxassislariga tavsiya sifatida chop qilingan ilmiy kitoblarni uzoq Xorazmning chekka qishlog'i u yoqda tursin, markazda yashaydigan birorta odamga zarurati bormi? Vohada o'rmon bo'lmasa, kemachilik temir yo'l kelishi bilan tarix mulkiga aylanib ketgan bo'lsa. "Raznaryadka" – taqsimlash degan amaliyot bo'yicha shu taxlit keraksiz adabiyotlar barcha kutubxonalariga tarqatilgani bir yoq, ularni hech kim o'qimasligidan bechora kutubxonachilar qo'shib yozishdek noqonuniy ishga majburlangani bir yoq.

To'rt yil – toki harbiyoga ketgunimcha opamga qishlog'imiz "faol kitobxonaga" aylanishida yordam berganman. Keyinchalik bu ishni singlim va ukam davom ettirishgan...

1972-yilda opam mudira bo'lgan kutubxonada qayta hisobga olish o'tkazilganida chiqitga chiqarilgan ikki yuzta kitobni aravaga yuklab uyga keltirganmiz. Bular Stalinning tanlangan asarlari, Xrushchevning bir talay kitoblari, Michurin va boshqa sovet olimlarining ilmiy asarlari edi. Bunga o'xshagan "majburiy makalaturaga topshirish" sho'ro davlatida dohiylar almashgan davrlarda tez-tez o'tkazilib turilgan. (Oldinlari "xalq dushmani" deb topilgan adiblar va sho'ro siyosatdonlari kitoblari yoqib yuborilgani ham bor).

1980-yilda kommunizm quramiz deb dam urgan siyosatdonlar iqtisodiy sohalar qatorida mafkuraviy tizimlarda ham soxtagarchiliklar, qo'shib yozishlarni eng cho'qqisiga chiqarishgan. 1980-yilga doir rasmiy ma'lumotlarda "har bir sovet kishisi boshiga yil davomida 21 dona kitob chop qilindi", "har bir sovet kitobxonasi yil davomida 46 dona kitob mutolaa qildi" kabi yozuvlarga ko'zimiz tushadi. 1970-yilda "dohiy"ning bir asrlik mavludini juda dabdaba bilan nishonlashadi. "Dohiy" yubileyiga atab uning tanlangan asarlari qayta chop qilinadi. Bundan tashqari, ayrim asarlari alohida holda, maktab o'quvchilariga mo'ljallangan "kichik asarlari" ham million adadlarda nashr qilinib, barcha kutubxonalar javonlarini "bezaydi". Kutubxonalar o'rtasida "dohiy asarlari eng ko'p o'qilgan bo'yicha" tanlov ham o'tkaziladi. Tungi chiroq yorug'ida ko'zimiz tolib, uyqu elitgani, charchaganimizdan aylilgan rejani bajara olmaganimizdan opam mudira bo'lgan kutubxona bu tanlovda g'oliblar qatorida e'tirof etilmadi. Tursun momo, Egam aka va boshqa "faol kitobxonlar" yil davomida "dohiy" asarlarini atigi bir necha marta "mutolaa qilishga" vaqt topishdi, xolos.

Sho'ro "dohiy"si mavludi arafasida berilgan topshiriq – uning asarlarini "ko'proq o'qish musobaqasi" toki SSSR tarqab ketganicha davom qilgan. Ya'ni, kitobxonlik ko'rsatkichida qo'shib yozishlar osmonga o'rilib boravergan.

Son va sifat haqida aytgandik. To'g'ri, sobiq sho'ro davlatida matbaa nihoyatda rivojlangandi. Partiya muassislik qiladigan vaqtili nashrlar adadi millionlarda aks etardi. Davriyligi ham shunga mos – hatto har kuni chop qilinadigan vaqtili nashrlar bor edi. Moskva'da chop qilinadigan vaqtili nashrlar shu kuniyoq eng chekka qishloqlargacha yetkazib berilardi. O'sha vaqtda qaysi idoraga bormang qabulxonada dasta-dasta gazetalari turganiga ko'zingiz tushardi. Bosmaxona bo'yog'i anqib turadigan bu gazetalarni "o'qish" uni varaqlab, suratlarini ko'zdan kechirish bilan poyoniga yetardi.

Vaqtili nashrlar, kerak-keraksiz kitob va risolalar chop qilish yildan yilga o'sib borishi ortidan "makalatura" degan xizmat ham paydo bo'ldi. "O'qib chiqilgan" gazeta-jurnal va kitoblarni davomli tarzda makalaturaga topshirish avvalida ixtiyoriy bo'lsa, keyinchalik majburiy tus oldi. Hatto har bir idora-tashkilot va maktablarga har oyda qancha makalatura topshirish rejasini berildi. Bir kun "yashaydigan" gazetalarni qo'ya turaylik, o'sha makalaturalar orasida kitoblar ham bo'lgani achinarli holat edi.



Esimda, o'tgan asrning saksoninchi yillari makalaturaga topshirilgan gazeta-jurnallarga yangi chiqqan, kamyob kitoblarni berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Masalan, yigirma kilogramm qog'oz topshirsangiz, Aleksandr Dyumaning "Uch mushketyor" romanini bardsiz olishingiz mumkin bo'lardi. Farang adibining mashhur asarini qo'lga kiritish uchun eng faol kitobxo'r bisotidagi kitoblardan kamida o'n donasini (majburiy-ixtiyoriy obuna qilinganidan to'plangan gazeta-jurnallarni ham qo'shib) makalaturaga topshirish majburiyatida qolardi. G'alati emasmi?

Bu aslida talab katta bo'lgan mashhur yozuvchilar asarlarini kamroq nusxada chop qilib, odamlar qo'lida to'planib qolgan keraksiz qog'ozlarni (gazeta-jurnal, kitoblar) yig'ishtirib olish, evaziga o'sha kitoblarni berish orqali bir o'q bilan ikki quyovni urish usuli. Ham qog'oz fabrikalari qo'shimcha arzon xomashyolik bo'ladi, ham kamyob asarlarni bir necha baravariga sotish orqali nashriyotlar daromad topishadi. Aslida, tamoman teskarisi – talab katta bo'lgan asarlarni ko'proq chop qilish kerak emasmi?

Toki sovet davlati tarqab ketgunicha sanoqli rumumdagi avtoulavlar do'konlarda bemaol sotilmas, balki rayqo'm byurosi qarori bilan go'yoki "ilg'orlarga mukofot" tariqasida berilardi. Halol ishlab topgan pulingga yengil mashina olish uchun idora-tashkilotlarda uzundan uzun navbat ro'yxati shakllantirilgan, ko'pchilikning navbati pensiyaga chiqqunicha ham yetib kelmasdi. Viloyatdagi tashkilotda muhandis bo'lib ishlaydigan amakim ishga qatnash uchun yengil ulov olishga besh yilcha navbatda turdi. Ammo navbatning oxiri ko'rinmaydi... Bir kuni quvonib keldilar: "Jigull" mashinasini bardsiz olish uchun olti yuz kilogramm makalatura topshirsam berisharmish". Amakim bilan ikki tumandagi kitob do'konlarini aylanib, ikki mingdan ortiq kitob oldik. (Makalaturaga topshiriladigan kitoblar orasida sovet dohiylari asarlari bo'lmisligi kerak ekan. Agar shu talab bo'lmaganida qalin-qalin kitoblarni arzonigina olgan bo'lardik). Qisqasi, amakim bir ming yetti yuz so'mlik kitob olib, makalaturaga topshirdi va yangi mashina egasiga aylandi.

Qizig'i, temir matoh egasi bo'lish uchun ikki ming kitobni chiqitga chiqarishga ruxsat berilgani.

Yanada qizig'i, o'sha davrda ko'pchilik o'zini ziyoli qatlami vakili deyiylari uchun uyida albatta kitob javoni saqlar va yangi chiqqan kitoblarni majburan xarid qilardi. Aynan javonda terilib turadigan kitoblar ko'zingizni quvontirishi, ya'ni chiroyli bezak o'rmini bosishi uchun nashriyotlar rus va boshqa millatlar klassik yozuvchilari tanlangan asarlari muqovasini turli ranglarda chop qilishgan. Kitobga o'qish uchun emas, bezak o'rmini bosuvchi matoh deb qaralgan.

1990-yil yozi adog'ida Bolqonbo'yi davlatlariga sayyoh bo'lib borganimizda yerlik aholining (serblar, makedonlar, turklar, xorvat va boshqa millatlar) kitobga munosabati bilan qiziqdim. Mamlakat poytaxti Belgradagi "Astoriya" mehmonxonasida uch kecha qo'noq bo'lganimizda xizmatchilardan shahardagi birorta kutubxona manziliini surishtirdim. U kitobga qiziqishimni sezib, mehmonxonona kutubxonasiga olib tushdi. Kutubxona yetti qavatli mehmonxonaning birinchi qavatida, juda shinam xonalarda joylashgan ekan. Mehmonxonada yashovchilar kitoblardan foydalanishi tartibi oddiy: siz kitobni ma'lum muddatga olasiz, ketar vaqtda topshirasiz. Ketish oldidan kutubxona mas'ulidan "Olgan kitoblarni" topshirdi yoki xizmatimizdan foydalanmadi" mazmunida bir parcha qog'oz keltirishingiz shart.

Garchi tilini tushunmasak-da, matbaachilikning sifati, kitoblar muqovalanishi darajasini bilish uchun besh-oltita kitob olib, varaqlab ko'rdik va matbaa Yevropada qay darajada taraqqiy etganiga guvoh bo'ldik. E'tiborsiz, garchi davlat atamasida "sotsializm" so'zi mavjud bo'lsa-da, kutubxonada ilmiy kommunizm dohiylarining asarlari ko'zga tashlanmaydigan joyda – chekkaroqdagi bir javonda terib qo'yilgandi. Rastalarni ko'zdan kechirib, bu yerda jahon klassiklari asarlari nihoyatda ko'pligi e'tiborimizni tordirdi.

Bulami ko'rib o'sha davrda... sobiq ittifoqda o'sha klassiklar asarlarini qo'lga kiritish uchun qop-qop makalatura ko'targanicha navbatda turib, topshirgan mirdqoraga mos bir parcha qog'oz – talonni olib, sevinganidan tepagini osmonga otayotgan haqiqiy kitobxonlarga... eng yomoni, tulari "butun xalqni kitobxonaga aylantirish uchun" soxta qog'ozlar to'ldirishga majburlangan kutubxona xodimlariga ichimiz achidi...

Ro'zimbay HASAN



OLAM OLIMI



Farovonlik va fan

2024-yil iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti "ijtimoiy institutlar qanday shakllanishi va farovonlikka ta'sir qilishini o'rgangani uchun" bir yo'la uch olimga topshirilgan. Bular – Daron Ajemog'lu, Saymon Jonson va Jeyms Robinson. Ular nega ba'zi davlatlar rivojlanib, boshqalari ortda qolib ketishini yangi modellarda asosida tushuntirib berdi.

TADQIQOT OBYEKTI

Laureatlarning asosiy hisslari siyosiy va iqtisodiy institutlar o'rtasidagi bog'liqlik va ularning xalq farovonligiga ta'sirini tadqiq etish bo'ldi. Ular mamlakatlarning rivojlanishi barcha uchun teng imkoniyat eshigini ochadigan inklyuziv institutlarga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Olimlar mustamlakachilik va siyosiy o'zgarishlarning davrlar kesimidagi oqibatlarini o'rganib, faqat ayrim guruh manfaatlar uchun tashkil etilgan institutlar oxir-oqibat faqirlikka olib kelishi mumkinligini aniqladi.

AHAMIYATI

Tadqiqotlarning muhim jihatlardan biri shundaki, mustamlakachilik davri institutlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodchilar xulosasiga ko'ra, mazlumlik zamonida resurslarni o'zlashtirishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan institutlar ayrim hollarda davlat mustaqillikka erishganidan keyin ham saqlanib qolgan. Bu o'sha o'lkalarning iqtisodiy ko'rsatkichlari o'sishiga ta'sir qilib, jahon maydonida tengsizlikka sabab bo'lgan.

E'tiborli jihati, ular iqtisodiy va siyosiy institutlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berdi. Inklyuziv siyosiy institutlar inklyuziv iqtisodiy institutlar uchun poydevor hozirlaydi. Bu esa barqaror taraqqiyotga asos bo'ladi. Ular ekstraktiv institutlardan inklyuziv institutlarga o'tish mumkinligini ham istisno etmaydi. Biroq bu jarayon katta kuch va siyosiy irodani talab qilishini ta'kidlashgan.

FAOLIYATI

Daron Ajemog'lu Istanbulda tug'ilgan, Londonda ta'lim olgan va hozirda Massachusetts texnologiya institutida (MIT) ishlaydi. Saymon Jonson britaniyalik, u ham MITda dars beradi va tadqiqotlar olib boradi. Jeyms Robinson Chikago universiteti professori. Uning yo'nalishi siyosiy nizolar va davlatlilik rivojlanishiga oid tadqiqotlardir.

Ajemog'lu va Robinson "Nega ba'zi mamlakatlar boy, boshqalari esa qashshoq?" kitobi orqali dunyoga tanilgan.

YECHIM

Iqtisodchilarning tadqiqotlari va xulosalari mamlakatlarning farovonligiga va barcha aholi qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratishga institutsional islohotlar qanday yordam berishi haqida qimmatli tushunchalar beradi.

Ular tadqiqotlari kambag'allikdan chiqish yo'liga qadam qo'ygan va yo'l boshida turgan mamlakatlar uchun muhimdir. Olimlar korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat boshqaruvining shaffofligini oshirish va fuqarolarning siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash inklyuziv institutlar yaratishning asosiy elementlari ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi.

XULOSA

Xulosa o'rinda iqtisodiy fanlar bo'yicha mukofot qo'mitasi raisi Yakob Svenssonning izohini keltiramiz: "Mamlakatlar o'rtasidagi daromadlar farqini kamaytirish bizning davrimizning eng katta muammolaridan biridir. Laureatlar bunga erishish uchun ijtimoiy institutlarning muhimligini namoyish etdilar".

Jasmina ISROIL tayyorladi.

"BAXTSIZ KUYOV" dan 100 YILLIK SABOQ



Boshlanishi 1-sahifada.

Muallif 1915-yilda yozilgan pyesani "Turkiston maishatidin oling'an to'rt pardalik foji'a" deya izohlaydi. Unda "kuyov bo'ladurg'an 25 yashar yigit" Solih marhum dadasining akasi – Abdurahim amakisining taklif va tavsiyasi, ammo zinhor ko'magi bilan emas, Fayziboyning Rahima ismli 16 yashar qiziga uylanadi. Dramada, shuningdek, domla-imom, ellikboshi va boy obrazlari ham bor. Bir ixcham to'y uchun "uch so'm pul, bir kalla qand va bitta mulla" kifoya qilgani kabi, Turkiston ahli maishatidagi fojiani sahnada ko'rsatish uchun Abdulla Qodiriyga shu yetti kishi yetarli bo'lgan.

Bir boyning uyida xizmatkorlik qilib moyanasidan uch yuz so'mga yaqin mablag' yig'ib qo'ygan Solihda orzu-havas yo'q edi, deysizmi? Axir, otanasidan bolaligida judo bo'lgan yigit ham yaxshi kunlar ko'rsam, yelkamga o'tob, ko'ksimga shamol tegsa, deydi. Ana shu yaxshi kunlarining biri sifatida, taassufki, o'z nikoh to'yini tasavvur qila olmaydi. Chunki to'y, turli oilaviy marosimlar bilan bog'liq muammolar, isrofgarchilik va dilxiraliklar hamma vaqt asosiy muammo bo'lib kelgani holda, bu Solih yashagan, Abdulla Qodiriy o'z zamonidan hikoya qilgan davr uchun ham taalluqli edi. Baxtga qarshi Solihning Abdurahim amakisidek yaqin qarindoshi, beminat maslahatgo'yi bor. Amakining tor dunyoqarashi, odamlarning gapiga qarab ish qilishi, albatta, haddan ziyoda orzu-havasga berilishi Solihni baxtsiz kuyovga aylantiradi.

"Zamonamizda yomon bid'at, isroflar taraqqiy topkan, unchamuncha oqchaga bu vaqtda uylanmak qiyin", deya amakisining uylanish va katta to'y qilish haqidagi maslahatiga asosli e'tirozini zorlanib aytgan Solih, muallif ta'biricha, qarzdor-abgor, ya'ni qarzni qaytarolmaydigan qarzdorga aylanib qolishidan xavfsirar edi. Amaki esa jiyanni qo'rqoqlikda ayiblab, "hozirgi zamonada qaysi bir yigit qarzdor bo'lmay uylanayapti", deya e'tirozga e'tiroz bildiradi. Mana shunday vaziyatda o'zbek xalqining "Qarz uzilar, xotin yonga qolar" degan naqlini o'ylab topganlardan ranjiydi kishi.

Keyingi voqealar Fayziboyning mehmonxonasida bo'lib o'tadi. Bo'lajak kelinning ota uyidagi voqea sovcilik bilan boshlanib, to'y maslahatiga ulanadi. Maslahat mahali Fayziboy Abdurahim hamda domla-imomni o'z tomoniga og'dirib, bo'lib o'tajak to'y bazmini as'asa-yu dabdaba bilan o'tkazishni reja qilib, oyoq tirab turib olsa, yangi fikr sohibi bo'lgan ellikboshi: "Sovchigarichilik olug'-solug'i so'ylashilmasa, chunki kuyov bo'lmish yigit o'zingizga ma'lum, yetim, ham kambag'al. Yana olug'-solig' shari'atda yo'q gap. Olug'-solug' qilinsa, kuyovdan ko'b oqcha olinsa, qarzdor bo'lub qolsa, yaxshi emas, deymen. Kerakli narsalarga ozroqqina oqcha olub, nikohlab bersangiz, shari'atdagi ish bo'lur edi", deya kamxarj to'y maslahatini pishirishga urinadi.

Domla-imom esa "har ikki to'yda besh yuz so'm pul, o'n besh qo'y, bir ot, to'rt botmon bug'doy, to'rt botmon brinch, kajavada mayiz, turshak, o'n yashuk har xil qand va shirinlik, yigirma quyum holva, uch ming dona katta non, qozonda nisholda, qizlarig'a o'n bosh-oyoq kiyim, kimxob, duxoba, shohi, atlas, movut, chidagan, chit va boshqalar; har biridan ko'ylak, kamzul va mazkurlarg'a loyiq qimmatbaho ro'mollar, yana uch dona paranji shohi, duxoba, adras, uch dona kavush-maxsi, qavm-qarindoshlarig'a, o'zlarig'a, zaifalarig'a bosh-oyoq kiyim", deya o'z ta'biricha "osonroq" yechimini aytadi.

"Har kimdan qarzdor bo'lub turub, qo'llaridagi bironing oqchasini to'y-tomoshag'a isrof qilib, puldorni pulini topib berolmay, sinib, mulk-ashyodan ajralub yotkanlarini ko'rmadingizmi? Ularning to'yini to'y demang, oxiri aza-ku, taqdir", deb zorlangan ellikboshining so'zlari havoda qoladi. Davradagilarning hech biri qulog'iga ilmaydi. Alaloqibat, to'y shariatini yoqlagan domla-imom va zamonazaylini pesh qilgan Fayziboyning istagiga muvofiq "taxminan bir ming besh yuz so'm" atrofidagi xarj bilan o'tkaziladi. Bu to'y uchun Solih Boydan to'qqiz yuz so'm qarz oladi. Shu shart bilanki, "avval to'qquz yuz so'mga bir yuz so'm ijara qo'shub berib, bir ming so'mga ham veksil beradi, ham hovli va hovlidagi hamma narsalarni natariusdan garov (zalo'k) qilib" berish shartiga ham noiloj rozi bo'ladi.

To'rtinchi pardada asl fojia sodir bo'ladi. Nikohdan so'ng hayotining asal oyini o'tkazishi lozim bo'lgan yangi kuyov-kelin – Solih va Rahima qarz balosi girdobida umrining boshi berik ko'chasida mahzun o'tiradilar. Bu qorong'i ko'chada esa Solihning ko'ziga o'lim najot nuridek ko'rinadi. Eridan judolikni ko'tara olmasligiga ko'zi yetgan Rahima Solihning qo'lidagi pichoqni olib, o'ziga uradi. "Seni va meni bevaqt o'lumimizga isrof sabab bo'ldi", deya ko'zda yosh bilan Solih ham o'z joniga qasd qiladi...

Drama yakunida ellikboshining monologidan mazkur sahna asari orqali hazrati Qodiriyning ham el-ulusga kuyunib aytmochi bo'lgan fikrlari o'rin olgan deyish mumkin: "Sizlar ham shundoq isrof qilmoqdasiz. Isrofning ziyonini ko'rdingizlar. Fayziboydan ibrat olinglar, ko'rdingizlarmi, isrof qilib, oxiri holi nima bo'ldi? Shari'ati mustafoga bo'yunsuninglar, endi ko'zlarigizni ochinglar. Bid'at to'yga isrof bo'ladurgan oqchag'a o'g'lingizlarni o'qinglar yoki jamiyati xayriyag'a iona qilinglar. O'g'ul o'qutmoq yaxshi ham farzdur, to'yga isrof qilmoq bid'atdur. Yana qiz erga bermoqni og'irlashdurganlarigizni bir katta ziyoni shulki, ba'zi yigitlarimiz o'ttuz-qirq yoshg'acha uylanmay yurarlar. Sababi esa xotun olmoq og'irlashgani, unga bir ming so'm, bir yarim ming oqcha kerak bo'ladi. Bul oqchani topolmay, noiloj bo'lub... qanday noma'qulchiliklar qilib nomimizni yomonlikga chiqarub, butun islom olamini bulg'atadurlar. Munga kimlar sabab bo'ldi? Albatta, qizlik otalar. Muni gunohisi kimga? Albatta, qizlik otalarg'a, chunki shari'atda yo'q narsalarni olaman, deyalar va yigitlarimizni mundoq narsalar beruv'ga quvvatlarini yetmaydur-da, shunday badkorlikni ixtiyor qiladilar. Yana qizlik otalarg'a aytamanki, qadimg'i odatimizni tashlasak, xalqg'a kulgi bo'larniz, deb o'ylamasunlar. Kulgan kishilar, gunohlari azm bo'lib, shari'atg'a bo'yunsunmagan bo'ladurlar".

Xo'sh, bu pyesa yozilib, oradan bir yuz o'n yil o'tgach, "Diydor" teatr-studiyasida qayta sahnalashtirish uchun nima turki bo'ldi? To'ylarda ortiqcha hashamatga berilish, oilaviy marosimlarga haddan ortiq pul sarflash, isrofgarchilik, oqibatda bo'g'zigacha qarzga botish oradan bir yuz o'n yil o'tsa-da, kelin-kuyovlarni tom ma'noda baxtsiz qilmoqda. Polshalik rejissyor Machev Viktor Abdulla Qodiriyning ushbu asariga murojaat qilib, o'zbek teatrida sahnalashtirgan mazkur spektakli ayni zamon o'zbeklariga tutilgan toshoynadir. Spektaklda pyesadan tashqari bir ko'rinish bor. Bu ko'rinishga tomoshaning ilk daqiqalarida guvoh bo'lasiz. Unda Fayziboy to'ylar, oilaviy tantanalarda, ma'raka va marosimlar o'tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha hukumatning qarorini o'qib eshitiradi. Ahamiyatli va ajablanarlisi, bu qarorni Solih va ellikboshi qatorida domla-imom ham, Abdurahim amaki ham, Boy ham eshitadi, olqishlaydi; achinarlisi qarorni Fayziboyning o'zi o'qib berganida...

Abdulla Qodiriy "Baxtsiz kuyov" dramasi ko'targan muammo hanuz dolzarbligini yo'qotmaganini dabdabali to'y o'tkazib, qarz botqoq'iga botib qolayotgan qo'ni-qo'shnilarimiz misolida ham ko'rib, bilib, afsuski, tomoshabin bo'lib turibmiz. Hashamatli to'y uchun ortiqcha sarf-xarajatlar zamon bilan hamnafas bo'lmagan kabi, hech kimni, ayniqsa, yangi oila qurgan yoshlarning baxтини belgilamaydi. Bu illatning fojiali oqibatlarini ham hayotda, ham hayotimiz ko'zguisi bo'lgan teatr sahnasida ko'rib turibmiz.

Solih-ku, bir pyesa qahramoni. Ammo bugun yon-atrofimizda to'y qilaman deb umri azaga aylanayotganlar, bir kunlik to'yni deb yillab qarz sirtmog'ida nafasi qisilganlar, ayni o'ynab-kulaman degan paytda kunining o'n besh-yigirma soatini mehnatga sarflayotgan baxtsiz kuyovlar yo'qmi? Odamzod o'ziga o'zi tilab olar ekan-da. Axir dabdabali to'y qilish majburiyat emas, ammo qarzni qaytarish ikki dunyo yoqangizdan tutadigan majburiyat-ku. Sog'lom odam hech qachon halokatni ixtiyor etmaydi.

Istagingiz, "Baxtsiz kuyov" dolzarb mavzu bayoni emas, yaqin o'tmishimizdan olingan fojia bo'lib qolsin!

Otabek ISROILOV

JAHON AYVONIDA

KUNCHIQARDA CHEKLOV

Yaponiya rasmiylari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishga yosh bo'yicha cheklovlar joriy etish imkoniyatini "qaramlikka qarshi kurash chorasi" sifatida muhokama qilmoqda. Bu haqda Nikkei nashri xabar berdi.



Hozirda tegishli vazirliklar bilan qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish masalasi yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda. Qonuniy tartibga solishning muayyan shakli 2027-yilgacha qabul qilinishi mumkin.

ISHSIZLAR SONI OSHMOQDA



Urush oqibatida Eronda ish o'rinlari yoppasiga qisqarishi kuzatilmoqda.

Eron mehnat va ijtimoiy himoya vaziri o'rinbosari G'ulomhusayn Muhammadiy bayonotiga ko'ra, urush

tufayli 2 million kishi ishdan ayrilgan. Ish beruvchilar va hukumat rasmiylari bu jarayonni "ishchi kuchini muvozanatlash" deb atamoqda.

"APPLE" RAHBARI O'ZGARADI

Apple kompaniyasi 2026-yil 1-sentyabrdan uning yangi bosh direktori Jon Ternus bo'lishini e'lon qildi.

Hozirda Ternus "Apple"ning apparat ta'minotini ishlab chiqish bo'yicha katta vitse-prezidenti lavozimini egallab turibdi.



Oxirgi 15 yil davomida kompaniyani boshqarib kelayotgan Tim Kuk ijrochi rais lavozimini egallaydi.

AKULA HUJUMI

To'ydan so'ng asal oyini o'tkazish uchun Maldiv oroliga sayohatga kelgan ispaniyalik Borha ismli sayyohga akula hujum qildi. Bu haqda Daily Mail xabar berdi.



Ma'lum qilinishicha, akula 31 yoshli sayyoh oyog'ini tizzadan uzib olgan. Borha zudlik bilan shifoxonaga olib borilgan. Hozirda uning ahvoli og'irligi aytilmoqda.

MUHOJIRLAR REKORD DARAJADA



Yevropa Ittifoqida yangi rekord: muhojirlar soni 64 million kishiga yetdi. Bu haqda RenTV xabar berdi.

Agar Yelda jami 450 millionga yaqin aholi yashashini hisobga olsak, har 7 kishidan biri xorijlik bo'lib chiqadi.

NATO BOSH KOTIBI TURKIYADA

NATO Bosh kotibi Mark Ruytte Anqaraga tashrif buyurib, Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo'gan, shuningdek, mamlakat tashqi ishlar vaziri Hoqon Fidan va mudofaa vaziri Yashar Guler bilan uchrashdi.

Tomonlar Atlantika okeanining har ikki qirg'og'ida ittifochilar o'rtasida yuzaga kelgan tushunmovchiliklar fonida, 7-8-iyul kunlari respublika poytaxtida bo'lib o'tadigan alyansning "tarixiy" sammitiga Turkiya tomonidan ko'rilayotgan tayyorgarlik masalalarini muhokama qilishdi.





MILLAT FIDOYLARI


Qanchadan qancha bilimli, el koriga yaray deb o'zini o'qqa-cho'qqa urgan insonlar, fidoyilar zamonning shafqatsiz bo'ron-u to'fonlari ichida qolib ketgani tarixdan ayon. Bu to'fonlar ne bir taqdirlarni sovrub, butun umrlarni izdan chiqargan. Kechagina orzu va ulkan maqsadlar bilan yashagan, yurtiga naf keltirishni o'ylagan insonlar bir zumda ana shu siyosiy girdob qurboniga aylangan.

Temurbek Kazbekovning taqdiri ham aynan shunday og'ir qismatlardan biri. Tergov hujjatlarida qayd etilishicha, 1937-yil 19-fevral kuni Toshkent shahrida O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligi Davlat xavfsizligi boshqarmasining 3-bo'limi tezkor vakili Gaynetdinov tomonidan so'roq qilinadi. Qahramonimiz shaxsiga doir ma'lumotlarni asosan shu bayonnomadan topamiz.

1904-yilda Andijon shahrida tavallud topgan Temurbek Kazbekov o'z davrining ilg'or yoshlari qatorida voyaga yetgan. Uning kamolotida jadidlar ilgari surgan g'oyalari, yangi bilimga chanqoqlik muhim o'rin tutdi. Shu bois, 1922-yili Turkiston Respublikasi xalq maorifi komissarligi tomonidan iqtidorli yoshlar safida Germaniyaga o'qishga yuborildi. Manbalar, xususan, tergov hujjatlarida qayd etilishicha, 1922-yilda Turkistondan Germaniyaga yuborilgan yoshlar tarkibi haqida ayrim ma'lumotlar aynan so'roq jarayonlarida keltirilgan. Jumladan, Sulton Matqul tomonidan berilgan ko'rsatmada ta'kidlanishicha, Toshkentda "Ko'mak" jamiyati doirasida o'tkazilgan yig'ilishdan so'ng bir guruh yoshlar xorijga o'qish uchun yo'l olgan. Ushbu guruh cheklangan tarkibga ega bo'lib, ular orasida Temurbek Kazbekov ham bor edi.

Ko'rsatmada tilga olinishicha, mazkur safda Kazbekov bilan bir qatorda To'lagan Mo'minov, Xayriniso Majidxonova, Solih Muhamedov, Abdurahob Is'hoqov, Sobir Ibrohimov va Azimbek Berimjonov kabi yoshlar ham bor edi. Bu ma'lumotlar orqali Germaniyaga yuborilgan talabalar guruhi muayyan tashkiliy asosda shakllangan, ularning tanlanishi esa o'sha davrda milliy kadrlar tayyorlash siyosati bilan bog'liq bo'lganini ko'rish mumkin.

Germaniyada o'tgan yetti yil (1922–1929) davomida Kazbekov to'qimachilik sohasida chuqur bilim egallab, oliy ma'lumotli muhandis sifatida shakllandi. "Germaniyadagi turkistonlik talabalar jamiyati" faoliyatida ishtirok etib (1923–1924), ta'limni yakunlaguniga qadar "Germaniyadagi SSSR talabalari ittifoqi" a'zosi sifatida faoliyat yuritdi. Ayrim manbalarda esa ana shu muhitning ichki manzarasi yanada ravshanroq chizib beriladi. Unda 1923–1924-yillarda mazkur jamiyat doirasida Ahmad Naim, Azimbek Berimjonov, Abdurahob Murodiy



va To'lagan Mo'minov kabi yoshlar faol qatnashgani tilga olinadi. Ular Berlinda – turli madaniyatlar tutashgan muhitda ham ta'lim olgan, ham o'z millatining kelajagi haqida o'ylagan, bahslashgan, izlangan. Bu muhitga Zaki Validiy kabi shaxslarning ta'siri bo'lgan. O'sha yillarda shu jamiyat tashabbusi bilan turkistonlik talabalar uchun Berlin va Turkiyada

o'zgardi. Ommaviy repressiyalar avj oldi va ko'plab ziyolilar qatorida Temurbek Kazbekov ham bu qirg'indan chetda qolmadi. U 1937-yilda hibsga olinib, unga qarshi og'ir ayblovlar ilgari surildi.

Tergov materiallarini tahlil qilar ekanimiz, ayblovlar tizimidagi mantiqiy ziddiyatlar va zo'rma-zo'rakilik ko'zga yaqqol tashlanadi. Uning Germaniyada o'qigani,



Temurbek Kazbekov 1922–1929-yillarda Germaniyada o'qigan talabalar orasida.

vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida jurnallar nashr etilib turgan. Germaniyada talabalik yillari Temurbek Kazbekov shaxs sifatida shakllangan, orzu va rejalarini mustahkamlagan.

1929-yilda Vatanga qaytgan Temurbek o'z bilim va tajribasini amaliyotga joriy etishga kirishdi. Toshkent to'qimachilik kombinati tizimida faoliyat yuritib, qisqa vaqt ichida o'quv-ishlab chiqarish bo'limi direktorining o'rinbosari lavozimigacha ko'tarildi. Bu esa uning nazariy bilim barobarida amaliy boshqaruv qobiliyatiga ega mutaxassis bo'lganini ko'rsatadi. O'sha yillarda O'zbekistonda sanoatni rivojlantirish jarayoni kechayotganini hisobga olib, bunday kadrlarning ahamiyati nihoyatda yuqori edi. Biroq 1937-yilga kelib mamlakatdagi siyosiy vaziyat keskin

xorijiy muhitda bo'lgani, turli jamiyatlarda qatnashgani, bir so'z bilan aytganda, faol bo'lgani o'zining boshiga balo bo'ldi. Ayniqsa, "Ozod Turkiston" nomli tashkilotga a'zolik haqidagi ayblovlar uning ishida markaziy o'rin egallaydi. Tergov bayonnomalarida keltirilgan "iqror"lar esa o'sha davr amaliyotiga xos bo'lib, ular qanday qilib olingani sizga yaxshi ma'lum, hurmatli o'quvchi.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, bunday manbalarni tanqidiy tahlil qilmasdan turib, ularni haqiqat sifatida qabul qilish mutlaqo mumkin emas. Aksincha, ular totalitar tuzumning soxta ayblov mexanizmlarini fosh etuvchi dalillar sifatida qaralishi lozim.

Kazbekovga O'zSSR Jinoyat kodeksining 59-, 63-, 13-, 67-moddalari bo'yicha bir qator

ayblovlar qo'yiladi. Oradan qariyb o'n oy o'tib, 1938-yil 7-oktyabrda ish yangi bosqichga ko'tariladi. SSSR prokurori A.Vishinskiy hamda O'zSSR Ichki ishlar xalq komissari D.Apresyan tomonidan tasdiqlangan ayblov xulosasida Temurbek Kazbekovga nisbatan qo'yilgan ayblar yanada kengaytiriladi. Endi u nafaqat avvalgi ayblovlar, balki O'zSSR Jinoyat kodeksining 57-1, 64-, 65- va 67-moddalari bo'yicha ham javobgarlikka tortiladi. Ayblov xulosasida Kazbekov 1922-yildan boshlab go'yo Germaniya razvedkasi tomonidan boshqarilgan tashkilotning faol a'zosi sifatida ko'rsatiladi. Unga SSSRga qaytgach josuslik faoliyatini davom ettirgani, respublika tekstil sanoatiga oid ma'lumotlarni dushmanga yetkazib bergani, Toshkent to'qimachilik kombinatida diversion-zararkunandalik ishlarni amalga oshirgani, hatto Oktyabr inqilobining 20 yilligi arafasida qo'poruvchilik harakatlarini tayyorlagani kabi ayblar yuklanadi.

Bir-biriga mantiqan bog'lanmagan, asossiz ayblar zanjiri orqali ish atay "og'irlashtirilib", yakunda oldindan belgilangan hukmga huquqiy tus beriladi. Bu holatni, ayniqsa, 1938-yil oktyabr oyida Toshkent shahrida o'tkazilgan SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyalari misolida yaqqol kuzatamiz. Qisqa vaqt oralig'ida – 4-oktyabrdan 16-oktyabrgacha yuzlab inson taqdiri muhokamasiz hal etiladi. Hujjatlarga ko'ra, 507 nafar o'zbekistonlik o'ta og'ir jazoga hukm qilingan. Ayniqsa, 1938-yil 8-oktyabr kuni qabul qilingan qarorlar bu jarayonning o'ta shafqatsiz va shoshma-shosharlik bilan amalga oshirilganini ko'rsatadi. Shu kunning o'zida 40 nafar shaxs otuvga hukm etilgan va ular orasida qahramonimiz Temurbek Kazbekov ham bor edi. Bor-yo'g'i 34 yoshni qarshilagan iste'dodli muhandis, millatning oydin farzandi hayoti shu tariqa fojiali yakun topdi.

Temurbek Kazbekov taqdiri yakka shaxsdan ko'ra ko'proq butun bir davrning fojiali manzarasini ifoda etuvchi tarixiy dalildir. Uning nomi o'sha qora ro'yaxtda qayd etilgan yuzlab vatandoshlarimiz qatorida turishi qatag'on yillarida ilmiy, tashabbuskor va mustaqil fikrlaydigan kadrlarga nisbatan qanday munosabat shakllanganini anglatadi.

Bugun arxiv hujjatlarini qayta ko'rib chiqish, ularni ilmiy muomalaga kiritish orqali bunday insonlarning haqiqiy qiyofasini tiklash – ham ilmiy vazifa, ham tarix oldidagi mas'uliyatdir. Temurbek Kazbekov kabi insonlar nomi unutilmasligi shart. Shu ma'noda, uning nomi tug'ilib o'sgan yurti Andijonda abadiylashtirilsa, ko'chalardan biri uning nomi bilan atalsa, xayrli ish bo'lar edi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori, professor

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Majid Qodirov (Abdulmajid Qodiriy) – 1886-yil 2-oktyabrda Toshkent shahri, Qoryog'di mahallasida tug'ilgan. Toshkentdagi eski maktabni bitirgan. So'ngra madrasada o'qigan. 1906-yildan rus-tuzem maktabida matematika o'qituvchisi, 1917-yilgi inqilobga qadar Toshkent shahridagi o'rta o'quv yurtlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi, 1918-yildan 1921-yilgacha Toshkentda jadidlar tomonidan tashkil etilgan "Turon" nomli 6-maktabni boshqargan. 1921-yildan Turkiston davlat universiteti eski shahar ishchi fakultetida o'zbek tilidan dars bergan. 1923-yili alohida xizmatlari uchun "Mehnat qahramoni" unvoni bilan taqdirlangan. O'zbekistonning Parijdagi ko'rgazmasini namoyish etgan. 1928-yildan O'rta Osiyo davlat universiteti qoshidagi "Fizika kabineti"ni boshqargan. 1929-yili partiya a'zoligidan mahrum etilgan. Egallab turgan barcha lavozimlaridan bo'shatilgan. 1937-yili NKVD xodimlari tomonidan qamoqqa olinib, SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrdagi qarori bilan otuvga hukm qilingan.

Abdug'afur Xo'ja Abdusamig' Xo'jayev – 1888-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1919–1924-yillarda "Ittihad va taraqqiy", "Milliy ittihad" tashkilotlarida faol ishtirok etganlikda hamda "Ulamolar yakkamillati"ga rahbarlik qilganlikda, Osipov isyonida faol qatnashganlikda ayblanib, O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi 2-bandi bo'yicha 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 13-avgustdan hisoblangan.

Mulla Ermat Nurmatov – 1888-yili boy oilada tug'ilgan. 1930-yili "quloq" qilingan. 1931-yili xalq manfaatiga zid hisoblangan, biroq tuzum talab qilingan topshiriqni bajarmaganligi uchun 3 yil ozodlikdan mahrum etilgan. "Sho'royi Islom" tashkiloti a'zosi bo'lgan. Hibsga olingan paytda imomlik lavozimida edi. Kengashlarda sovet hokimiyatiga qarshi aksilinqilobiy chiqishlar qilganlikda ayblanib, 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan.

G'ulomjon Jaloldinov – 1885-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. Sobiq amir amaldori, "Milliy ittihad" tashkilotining a'zosi bo'lgan. Chet el bilan aksilinqilobiy yozishmalar uchun 5 yilga qamalgan. Aholi orasida aksilinqilobiy tashviqot olib borganlikda, Sovet Ittifoqiga bo'hton qilganlikda, Afg'onistonga qochish uchun tayyorgarlik ko'rganlikda ayblanib, otilgan.

O'rinboy Do'sov – 1875-yili Piskent rayoni Piskent qishlog'ida tug'ilgan. "Sho'royi Islom" tashkilotiga rahbarlik qilgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Kolxozchilar orasida doimiy ravishda aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, trotskiychilikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilib, jazo muddati 1937-yil 16-avgustdan hisoblangan.

Ahmadjon Nosirboyev – 1884-yili Jizzax shahrida tug'ilgan. Sobiq savdogar. "Milliy ittihad" tashkiloti a'zosi bo'lgan. 1932-yili aksilinqilobiy faoliyati uchun qamoqqa olingan va 7 oy hibsdan bo'lgan. Hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lmagan. Aholi orasida xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblanib, otuvga hukm etilgan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
tadqiqotchi


(Davomi kelgusi sonda).

SURUR

SAMARQANDNING YANGI SAYQALI

Qadim-qadimdan "Yer yuzining sayqali" deya ta'rif-u tavsif etilgan Samarqand zamini bugun Yangi O'zbekiston ziyosidan sayqal topmoqda. Xususan, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning egzu tashabbuslari bilan Imom Buxoriy majmuasida olib borilgan olamshumul ishlar bu mo'tabar maskana butkul yangi qiyofa baxsh etdi.

Majmua maydoni qirq besh



1962 yil.

gektarga kengaytirilib, bu yerda o'n ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjid, bir yuz o'n to'rt ustuni, milliy andozali muhtasham ayvon bunyod qilindi. O'n to'rtta moviy gumbaz va yetmish besh metrli to'rtta minora ziyoratgohga o'zgaracha ulug'vorlik bag'ishladi.

Bugun bu betimsol majmuani kuzatar ekanman, o'tmishda o'zim guvohi bo'lgan bir armonli voqeaga oid badihamni e'tiboringizga havola etmoqchi bo'ldim. Sababini o'zingiz anglarsiz.

Ittifoqo, o'sha paytda Nurota tuman xalq ta'limi bo'limi rahbari bo'lib ishlagan Ochilboy Navro'zov sharoitimiz bilan tanishgani Maniga keldi. U kishiga Nurota shahridagi 1-o'rta maktab direktori, taniqli maorifchi Bahridin Rustamov hamroh edi. Navro'zov direktorimiz Istam Boboyorovdan ziyoratgoh haqida surishtirdi. Qisqasi, Navro'zov bilan Rustamovning ziyorat niyati borligi oydinlashdi. Ayrim mulohazalardan keyin, tarix fani o'qituvchimiz Hayit Islomov va men ularga hamroh bo'lib, ziyoratga o'tlandik.

ZIYORAT

1974-yilning kuzi – paxta yig'im-terimi mavsumida ustotaliklar, shu jumladan, maktab o'quvchilari Payariq tumaniga safarbar etildi. Maktabimiz Mani qishlog'iga tushdi. Kunlar o'tib, shundaygina yonimzda ulug' ziyoratgoh borligini, u Imom Buxoriy nomi bilan atalishini eshitdik. Eshituvchilar bu zot haqida hech nima bilmagani kabi, mahalliy aholi tasavvuri ham biznikidan avlo emas edi.

Ittifoqo, o'sha paytda Nurota tuman xalq ta'limi bo'limi rahbari bo'lib ishlagan Ochilboy Navro'zov sharoitimiz bilan tanishgani Maniga keldi. U kishiga Nurota shahridagi 1-o'rta maktab direktori, taniqli maorifchi Bahridin Rustamov hamroh edi. Navro'zov direktorimiz Istam Boboyorovdan ziyoratgoh haqida surishtirdi. Qisqasi, Navro'zov bilan Rustamovning ziyorat niyati borligi oydinlashdi. Ayrim mulohazalardan keyin, tarix fani o'qituvchimiz Hayit Islomov va men ularga hamroh bo'lib, ziyoratga o'tlandik.



2026 yil.

Ziyoratgohdan ancha berida ulovdan tushib, naqshin yog'och darvozagacha piyoda bordik. Darvozaning har ikki tomonidagi lavhadan arabcha va o'zbekcha harflarda "Imom Buxoriy majmuasi" degan yozuvni o'qidik.

Majmua xodimlaridan biri tahorat olishimiz lozimligini eslatdi. Bahridin Rustamov bu masalada maslahat berdi. Shundan so'ng biz tabarruk qabrga ro'baro' bo'ldik. Majmua xodimi, keksaroq otaxon Qur'on tilovat qildi. Duodan keyin atrofini tomosha qildik. Maqbara devorida rom ichidagi kirillcha yozuv e'tiborimizni tortdi. Undan to'liq nomi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardizba ekanini o'qidik. Ammo ismi Muhammad, otasi Ismoil ekanini aytib berishganidan keyin bilib oldik.

Lavhada "Hadis ilmining pesh-

qadami" degan yozuv ham bor edi. "Hadis" qanaqa ilm? Bir-birovimizga savol qildik. Birov bir narsa deya olmadi. Bizning gumrohligimiz sezildi, ammo shu yerda tilovat qilib turgan otaxon ham "bilmasligini" bo'yiga oldi va qisq ko'zlarini yarim yumib, "domla bilsalar kerak", deganicha bizdan uzoqlashdi. Domla, ya'ni majmua imomi safarda ekan, uchrasholmadik, savol ham bejavob qoldi...

Boshqalarni bilmadim-u, men 1990-yilda Toshkentda "Fan" nashriyotida chop etilgan "Axloq-odoba o'ld hadis namunalari" kitobchasini o'qib, undan keyingina, oradan o'n olti yil o'tib, bu savol javobini topganday bo'ldim. Qarangki, shu ziyoratda ishtirok etgan beshovimiz ham ma'rifat va ma'naviyat vakillari edik. Azizlar, u yillar bu kunlarga o'xshamas edi...

Suyundik MUSTAFO



ABADIYAT ORALAB



Toshkentga birinchi marta kelishim edi. Shahar meni qovoq uyub kutib oldi: anhorni pufakchalarga to'ldirib yomg'ir yog'ardi.

Shahar odami beparvo. Qadrdon go'shasiga kim kelib, kim ketgani bilan ishi yo'q. Hammasi qaygadir shoshadi. Gap so'rasang yo yelka qisadi, yo eshitmaganga olib ketaveradi. Faqat yomg'ir baxona, yangi soyabonlarini ko'z-ko'z qilib yurgan bo'y qizlarga mening qarshimdan o'tayotib, shivir-shivir qilishadi.

– Xoli, anuv bolani qara, arabning o'zginasi...
– Voy, "Qo'lga tushmas qasoskorlar" dagi lo'lga o'xshaydi-ya...
– Shimini o'zi tikib olganmi...

Egimdagim ko'yak akamniki. U harbiy xizmatga ketgan kuni yangamga yalinib olvolganman. Ko'yak shunday kengki, yana bir sinf bola yopinsa bo'ladi. Oyog'imda o'sha paytda hamma qishloq bolalari se-vib kiygan ikki so'mlik latta tufli.

Qizlarga gap otgim keladi, tag'in. Ular esa sharaqlab kulishib mendan uzozlashadi. Kiyimga emas, ko'ngilga qarash kerak, oymichalar!..

O'ninchini bitirish arafasida adabiyot muallimimiz bilan aytishib qoldim. U butun sinf oldida "Sendan ikki dunyoda ham shoir chiqmaydi", dedi. O'sha paytlarda men she'r mashq qilib yurardim. Qalin dafta-rimni qo'ynimga solib, muallimdan arazlab, poyezd stansiyasiga chiqdim.

Xullas, men Toshkentga uydan qochib kelgandim!

Shunday qilib, anhorning bo'yidaman. O'tgan-ketgandan Yozuvchilar soyuzini surishtiraman. Hech kim aytmaydi. Bu yoqda esa, katta shaharda birinchi marta, quyosh botayotganini tomosha qilyapman. Bo-radigan joyim yo'q. Vokzalga qaytaman.

Perron to'la odam. Qop-qora tutun purkab yurgan parovozlarga termulaman. Bormagan joyi yo'q ularning, ko'rmagan shahri yo'q parovozlarning...

– Ha, bola, sen ham shoirmi deyman. Parovozlar bilan gaplashyapsan?

Umrimga birinchi marta meni shoir, deb atagan odamga qarayman. Uning bir qo'lida g'ijim bo'lgan kostyum, bir qo'lida esa gazeta. O'rta bo'y, ozg'in, ammo ko'zlar to'la tabassum.

– Uyga ketmoqchiydim, – deyman xo'rsinib. – Biletim yo'q.

– O'zing qayerdansen?

– Marhamatdan.

– Marhamating qayerda?

Savol menga yoqmaydi. Darrov qovog'imni solaman. Yangi tanishim yelkandan quchib oladi:

– Bo'ldi, bo'ldi, hazillashdim. Marhamatga borganman, bilaman. Zo'r shahar. Men Toshkentga nega kelganingni so'ramoqchiydim, uka.

– Abdulla Oripovni ko'rishga keluvdim.

– Kimni-kimni?..

Nahotki Oripovni ham tanimasa? Qanaqa odam o'zi bu?

Suhbatdoshim esa baralla kula boshlaydi. Kulganida ko'zlaridan yosh oqib ketarkan. Ko'p o'qisa kerak-da.

– Qani, ketdik!

Indamay unga ergashaman. Qiziq, mashinasi bormikin. Baribir boshqa boradigan joyim yo'q. Biroq bu odam o'zi kim ekan?

– Siz kim bo'lasiz?

U javob o'rniga kulib qo'ya qoladi.

Yo'lovchi mashinada shaharga kirib boramiz. Yangi tanishimning xotini bizni xursand kutib oladi. Lekin ming yashirmasin hayronligini sezaman.

Latta tufli ivib kalamushga o'xshab qolgan. Issiqqina xonada qandchoy ichib o'tiribman. Ichkaridan tovush keladi.

– Bu yigitcha kim?

– Ishing bo'lmasin, katta shoir u. Hozir choy ichib olsin, she'rlarini eshitasan...

Choyni xo'rillatib ichayotganimni sezaman.

Biroq boshqa ilojim yo'q. Shunga o'rganib qolganman. Bizning uyda hamma shunday choy ichadi, muzikasi bilan. Eh, ketaqolsam bo'larmidi.

– O'zing yaxshi shoir ekansan-u choyni xo'rillatib ichar ekansan-da, uka!

– Bizning qishloqda choyni hamma shunaqa ichadi.

– Mashq qil, balki o'rganib ketarsan.

– Nimani?..

Er-xotin bir-biriga qarab qoladi. Men biroq uyalgan bo'laman. Biroq yana ichimda shayton o'yinga tushadi. "Nima bo'пти. Choyni hamma har xil ichadi. Birov issiq, birov sovutib, yana birov esa ovoq chiqarib. Sen esa xo'rillatib ichaver".

Keyin "mushoara" boshlanadi.

Bitta she'r o'qiyman. Yoqmaydi. Yana o'qiyman. Yana yoqmaydi. Yanga choyni baxona qilib chiqib ketadi. Shu ko'yi qayta she'r eshitishga kelmaydi. Men esa yana o'qiyveraman. Nihoyat, tovushim xirillab qolganida, jahlim chiqadi.

– Nega yomon deysiz. Axir bu she'rlarimni hamma maqtaydi-ku! Siz kimsiz o'zi?..

Mezbon endi xandon otib kuladi. Shunaqangi qattiq kuladiki, xotini yugurib chiqadi.

– Bilasanmi, men ham shoirman. O'sha o'zing aytgan Abdulla Orif...

U gapini tugatmayoq o'nmindan otilib turib,

eshikka yopishaman. Abdulla aka chaqqonlik bilan qo'lmdan ushlab oladi:

– Qayoqqa, voy tentag-ey, qayoqqa borasan yarim kechada?

Divanga cho'kaman. Har zamonda yer ostidan unga qarab qo'yaman. Xuddi o'zi.

Abdulla Oripovning o'zginasi. Axir televizorlarda necha marta ko'rganman. Nahotki tanimasam?

Endi ikkalamiz qo'shilishib kulamiz. Xandon otib kulamiz...

Tongda uyg'onsam, Abdulla aka yo'q. Yanga ham sutchoy tayyorlab qo'yib, ishgami ketibdi.

Endi sutchoyni ovozsiz ichishni mashq qilayotganimda eshik ochiladi. Abdulla aka jilmayib, menga ko'z qisib qo'yadi. Qo'lida qog'oz quti.

– Ma, kiyvol, hozir biletga boramiz.

Qarasam, yap-yangi tufli. Yaraqlab turibdi. Sal uyalgan bo'laman. Ichimda esa o'zimni oqlayman. "Shunday katta shoirda bir juft tufli nima bo'пти. Istasa senga mashina olib berishga qurbi yetadi. Ol, og'ayni, noz qilmay kiyaver".

Yangi tuflini kiyib, eskisini durruga o'rab, sumkaga solaman. (Otam bu sumkaga bozor-o'char qilardi. Rosa qidirdandir.)

Abdulla aka sumkaga ishora qilib kuladi:

– Dehqon bolasisan-da, pishiqsan. Eski tuflingni ham esdan chiqarmading-a?..

Kassirlar Oripovni ham tanishmas ekan. Kitob o'qishmaydi-da. Vaqtleri yo'q. Muhim ishlari ko'p. Ular o'qishdan ko'ra sanashni yaxshi ko'rishadi. Pul sanashni.

Zo'rg'a bilet olamiz. Parovoz chinqirig'i ostida menga aziz va qadrdon bo'lib qolgan tovush yangraydi:

– O'qishni bitirib to'g'ri oldimga kel. Xayr, uka!..

Bu voqeaga rosa o'n olti yil bo'libdi. O'n olti yildan buyon Abdulla akaga buni ayto'lmadim. Aytсам, qandaydir yaqinlikni da'vo qilayotganday bo'lardim. Ehtimol, o'sha yili maktabni bitirib, to'g'ri oldiga kelsam, bunchalik qiynalib o'qimasdim, ming azobda kitob chiqarmasdim, kim biladi deysiz.

Lekin Abdulla aka menga faqat tufli sovg'a qilmagandi. U menga to'g'rilikni, halollikni, odamiylikni, maqsadga yetish uchun odam juda katta mehnat qilishi kerakligini ham o'rgatgandi.

Mana, o'zi aytganidek, men yana uning oldiga keldim. Bu safar o'sha bola paytimda ko'nglimni ko'tarib, hech kim eshitishni istamagan she'rlarimni tinglab, yaxshi maslahatlar bergani uchun rahmat aytgani keldim...


Talant nodir va ulug'. Talant ma'naviy dunyoning eng buyuk cho'qqisi. Ammo oddiy odamgarchilik, insoniylik undan ham ulug'!

Muhammad YUSUF

1989-yil.

“San'atning maqsadi narsalarning tashqi ko'rinishini aks ettirish emas, balki ularning ichki mohiyatini ochib berishdir.

ARISTOTEL



HAJV

Xonish (yoki tonish)

Shinavanda ulpatlarimdan biri san'atchilarni uchiga chiqqan hozirjavob deb alqaganini eshitganim bor. Kecha Abbas qotma nikoh to'yini qaytarma qilganida ITda tarqagan shou-shuvli soliq dahmazasiga javoban bir o'lan eshitdim-u, bir qo'lim bilan o'z yoqamni, bunisi bilan yallachini yoqasidan tutdim. Barhaq, zang'arni shikoyati o'ta poyintar va beparda edi. Harna, bul yuvuqsizga taskin bo'lar deb, ushbu qaltis mavzuni qog'ozga chalpak qildim.

“Soliq” so'zin eshitasam, qaqshaydi ustixonim, Lunjimda qotar qazi, labimda to'ng'ir xonim. Bu nechuk achchiq savdo, ey kavkabi osmonim, Nahot puturdan ketdi, voh, taralla zamonim? Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim.

Oliq bor-u soliq yo'q ro'zgorimga ko'z tegdi, Yo bir qinjir noibga g'oyibidan so'z tegdi, Yo bloger janasga hangiteri go's* tegdi, Yoki palakat bosib, o'rtakashga po'st tegdi. Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim.



Aravakash, nospurush, go'rkov, ovchi, shopir ham, Novvoy, g'assol, sartarosh, paxtakor-u shoir ham, O'tparast-u butparast, yahud, muslim, kopir ham, Soliq to'lar deydilar uchaskavoy Sobir ham, Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim.

Shu xalqning o'zi bizni tantirab o'stirib, “Oposh-oposh” qildi-ku besabab pul qistirib, Nahot endi berganin olsa, hayhot, qustirib, San'at koshonasi porloq ko'shkin buzdirib? Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim.

Bizlar sopol mushukdek faqat olib yashadik, O'ngni o'pirib, chapga changal solib yashadik, Xit paradda itarib, do'stni chalib yashadik, Mov mushukdek hayotdan nuqul no'lib yashadik. Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim.

Otarchidir otimiz, otib ketamiz, yor-yor, O'yinchimiz – o'ng'ayda yotishimiz ham darkor, Ulusni ko'tarasi sotib ketishimiz bor, Sotamiz-u, birovga bir tin** bermaymiz zinhor, Olarda kirar jonim, berarda chiqar jonim.

Shamsiy yil hisobiga hamal (qo'zichoq) oyining 23-g'iratongida so'nahotgan zahil yulduzlarga ma'yus boqib, abadiyatga mixladim.

Sattor SUROB

go's* – jang nog'orasi.

tin** – tiyin (qistirishga yaramaydigan o'tmish pul birigi).

Jadid

adabiy, ilmiy-ma'rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Mas'ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Otabek Bakirov

Adadi – 18 497

Shundan:

Kirill yozuvida – 7 024

Lotin yozuvida – 11 473

Media kuzatuvchilar – 82 648

Buyurtma: G – 440

Hajmi: 4 bosma taboq, A2.

Nashr ko'rsatkichi – 222.

Tashkilotlar uchun – 223.

1 2 3 4 5 6 6

Sahifalovchilar:

Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzillimiz:

Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko'chasi, 69-uy

Telefonlar:

Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.



www.jadid.uz

Muassislar:



O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI



RESPUBLIKA MA'NAVİYAT VA MA'RIFAT MARKAZI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI



MILLIY MASS-MEDIANI QO'LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI



“SHAHDILAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI